

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

UDK (372.362)

ARTIKBAEVA AZIZA ABROR QIZI

**Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi
bolalar nutqini rivojlantirish**

magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Mutaxassislik: 5A111801-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(maktabgacha ta'lim)

Ilmiy rahbar: p.f.n. professor D.R.Babayeva

“ ” 2021-yil
imzo

Kafedra mudiri: p.f.n dotsent. G.E.Djanpesova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“ ” 2021-yil
imzo

Magistratura bo'limi boshlig'i: Ch. M. Kurbanov

“Himoyaga ruhsat berildi”
“ ” 2021-yil
imzo

Toshkent-2021

KIRISH.....	3-10
I.Bob. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari.	
1.1. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	11-20
1.2. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning hozirgi xolati.....	21-28
I- bob yuzasidan xulosa.....	29
II. Bob. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari.	
2.1 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish mazmuni.....	30-48
2.2. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali shakllari.....	49-61
II - bob yuzasidan xulosa.....	62
III. Bob. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning amaliy taxlili.	
3.1 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari.....	63-71
3.2 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning tajriba-sinov natijalari.....	72-86
III - bob yuzasidan xulosa.....	87
Umumiy xulosa.....	88-89
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	92-95
Ilovalar.....	96-102

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz tizimning birinchi bo'g'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muxim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli Qarori "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda" O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bandidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish etib belgilanganligi, atnan bu sohani yanada takomillashtirishga qaratilganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017- yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "— kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta'lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmasligi"¹ kabi mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilishi ta'kidlab o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tizimini qayta qurishning asosiy yo'nalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlari, layoqati va qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan ta'limdir. Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim

¹ Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori"dan

tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi. O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga yetkazishdan iborad.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda alohida yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni nazarda tutadi². Bolalarni milliy ma'daniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu hodisalarni tushunish, go'zallikni ko'ra bilish va xis etishga mas'uliyat xissini oshirish bilan birga bolalarni nutqini aniq, ravon o'sishiga zamin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining birinchi – maktabgacha ta'lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o'zgarishlar bilan tavsiflanadi: maktabgacha ta'lim ochiq turdagi ta'lim tashkiloti sifatida shakllandi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga muvafaqqiyatli tayyorlash va boshqalar. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

² O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari -T.: 2018y. 3-iyul.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta’kidlaganidek, «Ta’lim tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Ta’lim tarbiyaga quyidagicha ta’rif beradilar. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi, talabalarga mehnat ta’limi va tarbiyasi vazifalarini singdirishni nazarda tutadi Binobarin, ta’lim – tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi.³ Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish – ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. O‘sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 sonli qarorida o‘tgan davr mobaynida sog‘lom va har tomonlama rivojlangan o‘sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta’minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta’lim tizimini tashkil qilish bo‘yicha kompleks tashkiliy huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilishi bilan birga, mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgani keltirib o‘tilgan⁴. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya’ni, uzluksiz ta’lim tizimi xodimlari, pedagog pedagoglar tomonidan zamonaviy ta’lim

³ Islom Karimov Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch.- T.: “Ma’naviyat” 2008.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 sonli qarori. -T.: 2018 yil 9-sentyabr.

texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining o'rganilganlik darajasi: Buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Axmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy, Zahridin Muhammad Boburlarning ta'limiy – tarbiyaviy qarashlarida nutqning bolalar hayotidagi o'rni haqidagi fiklari yoritilgan. F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, S.G'oziyeva, V.S. Muxina, D.R. Babayeva, N.N. Djamilova, V.N. Drujinin, Q. Shodiyeva, G.E.Djanpeisova, M.Sh.Rasulova, N.U.Bikboyeva, A.G.Grigoryans, kabi bir guruh olimlar tomonidan bolalarni nutqini o'stirishda tevarak-atrofdan samarali foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. E.V.Tixeyeva, O.I.Solovyova tomonidan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish muammosi o'rganilgan.

Tadqiqotchilar: V.S.Muxina maktabgacha katta yoshdagi bolalarni so'z ma'nosiga, so'zlar bilan anglatiladigan borliqqa yo'llash, ularda so'zning ahamiyatidan qati nazar, tovush shakliga katta qiziqish uyg'otish, O.I.Soloveva esa bolalarni so'zlashuv nutqi va hikoya qilishga o'rgatishga oid e'tiborli kuzatishlarni bayon qilish bilan birga, hozirgi davrga nisbatan eskirgan g'oyalarni ham ilgari suradilarki, bu hol ular qalamiga mansub adabiyotlardan foydalanishda ehtiyot bo'lishni talab etadi. G. Amirovaning "Tabiatni estetik idrok etish" nomli metodik qo'llanmasida bolalarni o'qitish jarayonida tabiatni estetik idrok etishga, atrof-olamga munosabatini, tabiiy materiallardan ko'rgazmali qulollar yasashni, tabiatga mehr muhabbatini oshiradi va atrof-olamga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi. M. Umarovanning bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish mavzusidagi tadqiqot ishida bolalarni tabiatga bo'lgan mehrini, qiziqishini takomillashtirib borishiga doir ilmiy izlanishlar olib bordilar. X.Ziyoev, B.Ziyomammedov, A.Ibrohimov, M.Imomnazarov, Ibrohim Karimov, Q.Nazarov, T.Mahmudov, J.Tulenov, E.Yusupov Z.G'afurov va boshqa olimlar bola tarbiyasida

ma'naviyatning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti, milliy ong va milliy mafkuraning shakllanishiga ta'siri masalalari bilan bog'lab tadqiq etadilar.

Tevarak-atrof muxofaza qilish Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin dolzarb mummolardan biriga aylandi. So'ngi yillarda atrof-muhitni, tabiatni, o'simlik va hayvonot dunyosini muxofaza qilish haqida qator qonunlar hamda ko'plab me'yoriy metodik xujjatlar qabul qilindi. Bu qonunlarda Respublikamizning hozirgi ekoloik-iqtisodiy siyosati umuminsoniy ekosistemani muhofazasini ta'minlashga, inson hayoti mohiyatining barcha qirralarini ochib bermoqda. Ushbu muammoning dolzarbligidan kelib chiqib magistrlik dissertatsiya mavzusini «Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish» deb nomladik.

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi: Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdan iboratdir.

Magistrlik dissertatsiya ishining obyekti: Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni.

Magistrlik dissertatsiya ishining predmeti: Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari.

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadiga erishish, shuningdek, ishning belgilangan ob'ekti, predmeti va ilmiy farazidan kelib chiqqan holda biz quyidagi **vazifalarini** belgilab oldik:

1. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy–pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni, internet saytlardagi materiallarini o'rganish va tahlil qilish;
2. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini, metod, shakl va vositalarini aniqlash, asoslash va tajribadan o'tkazish;
3. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid mezonlarini aniqlash.;
4. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'rganildi.
2. Tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, metod, shakl va vositalari aniqlanadi, asoslanadi va tajribadan o'tkazildi.
3. Tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ish shakllari takomillashtirildi.
4. Tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid ilmiy uslubiy tavsiyalari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish samarali natija beradi agarda;

- tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni, internet saytlardagi materiallarni o'rganilsa va tahlil qilinsa;
- tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tizimli ish olib borilsa;
- tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid tavsiyalar yaratilsa;
- Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish tizimini ishlab chiqilsa.
- **Magistrlik dissertatsiya ishining metodlari.**

Mazkur tadqiqot ishida:

- tevarak - atrof bilan tanishtirish muammosiga doir ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik va metodik adabiyotlarni ilmiy nazariy o'rganish va analitik tahlil;
- taqqoslash, ma'lumotlar to'plash, tajriba, kuzatish;
- matematik statistika va muammoga doir ma'lumotlarni to'plash va ularni saralash;

Magistrlik dissertatsiya ishining metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimi

boshqaruvinini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risi"dagi qonun va qarorlar, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi" qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid "Kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chiqarilgan qaror"lari. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan «Davlat talablari», "Ilk qadam" davlat dasturi, barkamol shaxsni shakllantirishga oid qarashlar, ilmiy - nazariy xamda pedagogik va psixologik qarashlarning an'anaviy tizimi tashkil etadi, fakt va argumentlarni bir-biriga taqqoslash, dalillarni tahlil qilish uslublariga tayanildi.

Tadqiqotning asosiy bazasi: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Maktabgacha ta'lim texnologiyalari" kafedrasida hamda Toshkent shahridagi 336-sonli DMTT hamda 473-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqot bosqichlari:

Tadqiqot bosqichlari (2019-2020 yillar)– tadqiqot mavzusiga aloqador ilmiy-pedagogik, falsafiy, psixologik yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar o'rganib chiqish, shuningdek mavzuni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish. Tadqiqotning maqsadi, mazmuni, vazifalari belgilab olish. pedagoglarning qimmatga ega tajribalari umumlashtiriladi, talabalar faoliyati yuzasidan kuzatishlar, suxbatlar, so'rov nomalar tarqatiladi, ta'kidlovchi, izlanuvchi tajribalar olib boriladi.

Ikkinchi bosqich (2020-2021 yillar) Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muxitni kuzatishga o'rgarish bo'yicha tajriba-sinov ishlari amalga oshiriladi, pedagogik eksperiment asosida olingan natijalar izohlanadi va umumlashtiriladi, tadqiqot materiallari tizimlashtiriladi, xulosa va tavsiyalar shakllantiriladi, tajriba ishlarini olib borish uchun maxsus tayyorgarlik olib borildi.

Magistrlik dissertatsiya ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishidan olingan natijalardan tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid topshiriqlarni

tuzishda, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotga yo'naltirishda hamda shu sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi: tadqiqotning muhim nazariy g'oya va amaliy natijalari, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda, ilmiy to'plamlarda, «Maktab va hayot» kabi ilmiy-metodik jurnallarda maqolalarni e'lon qilish orqali amaliyotga tatbiq qilindi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi: Tadqiqotning g'oyalari va amaliy natijalari tadqiqotchilarning respublika ilmiy-metodik to'plamida, ilmiy jurnallarda, muallif tomonidan chop ettirilgan 2 ta ilmiy maqola asosida jamoatchilik e'tiboriga havola etildi.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi: dissertatsiya kirish, uch bob, 6 bo'lim, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iboratdir.

I. Bob. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari.

1.1 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonnida "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"⁵ deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim

⁵ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonnidan

tashkilotlarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Globallashuv sharoitida o'ziga xos ijtimoiy institut hisoblanuvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, bolalarni maktabgacha ta'lim yoshidan ijtimoiy munosabatlarga moslashtirish turli salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishda o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lim Tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rab turgan tevarak-atrof o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'nalishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda tashkilotda ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'z milliy qadriyatlarini tiklash yo'lida jamiyat hayotining har bir jabhasida

sobitqadamlik bilan ish olib bormoqda. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2015-2016-yillar davomida 459 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari mukammal ta'mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlandi.

Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Aksariyat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.⁶ Dastur asosida keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;

2200 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so'm mablag' ajratilishi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 30-dekabr, 2016

koʻzda tutilmoqda. Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishiladi:

yuqori sifatli maktabgacha taʼlimni taʼminlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, taʼlim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;

bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli boʻlgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etishga;

3-6 yoshdagi maktabgacha taʼlim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qoʻllanmalar bilan taʼminlash orqali maktab taʼlimiga tayyorlashni tashkil etishga;

maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarmogʻini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud tashkilotlarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal taʼmirlash orqali kengaytirishga;

qishloq joylardagi maktabgacha taʼlim tashkilotlarida ota-onalar badal toʻlovini 30 foizgacha kamaytirishga;

bolalarning maktabgacha taʼlimga qamrovini 1,5 barobarga oshirishga.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda koʻzda tutilgan koʻrsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida boʻladi. Qarorning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida respublikamizning uzluksiz taʼlim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yoʻlining uzviy va bosqichma-bosqichligini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgʻrisida Qonunining maqsadi taʼlim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat boʻlib, Maktabgacha taʼlim va tarbiya bolalarni oʻqitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, maʼnaviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan taʼlim turidir. Maktabgacha taʼlim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha boʻlgan bolalarni boshlangʻich taʼlimga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha taʼlim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek

«Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.⁷

Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. Ta'lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta'lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish, falsafasi esa insonni shakllantirishdan emas, balki unga o'zi o'zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat. Ta'lim mazmunini, shaxsning sub'ektivligini rivojlantirish, uning ma'naviyligi va ijtimoiy yetukligiga yo'naltirishda namoyon bo'lishi kerak. U ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o'zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog'liq.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yishda tabiatga uyg'un bo'lishi g'oyasining davomchisi bo'lgan. O'zining "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida bola shaxsining tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. A.Avloniy bola tabiatan go'zallik va mehribonlik bilan uyg'unlikda tug'iladi deb yozadi. Allomaning fikricha, ta'lim va tarbiyaning vazifasi bola shaxsining rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat.

Ta'lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to'g'risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi va amaliyotida o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Bu o'zgarishlar me'yoriy o'quv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada o'z aksini topgan.

Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqoriroq talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqini rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo'l qo'yilayotgan

⁷ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoevning Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.-T.; 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.

kamchiliklar bu sohada hali-hanuz eski mezonlar asosida ish ko‘rilayotgani, ilmiy-metodik adabiyotlarning yetarli darajada emasligi bilan izoxlanadi. Binobarin, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o‘rganishda nutqini rivojlantirishga oid nazariy metodik muammolar hozirgacha o‘z yechimini topgan emas. Jumladan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish jarayonida bilishlari lozim bo‘lgan tevarak-atrofga asoslangan manbalarni ta‘minlovchi ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar aniqlanmagan; maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning jahon standartlari talab va qoidalarga to‘la darajada javob beradigan maqbul shakl hamda metodlari topilgan emas. Shu holat nazarda tutilsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish samaradorligini oshirish bo‘yicha tarbiyachilar tomonidan qilinayotgan sa’y-harakatlar nima uchun kutilgan natijalarni bermayotganligi aniq bo‘lib qoladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti 2020 yil 23 dekabr da tasdiqlandi. Davlat standartining maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. uning vazifalari qatorida ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etish ham bor.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartida quyidagilar nazarda tutilgan:

- davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalari;
- maktabgacha ta’limning namunaviy o‘quv rejasi;
- davlat standartini joriy etish va uning talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- davlat standarti komponentlari, xususan:
 - ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari;
 - maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat o‘quv dasturi;

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash normalari.

Davlat standartining asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

- har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi;
- davlat standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi;
- maktabgacha ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- maktabgacha ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanganligi;

xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish⁸.

Maktabgacha ta'lim uchun davlat ta'lim standartining kiritilishi, har bir bolaga muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun teng boshlang'ich imkoniyatlarni taqdim etish uchun maktabgacha ta'lim tarkibini standartlashtirish zarurati paydo bo'lganligi bilan izohlanadi. Bola hayoti kattalarning hayoti va faoliyatiga qo'shilib ketgan. Lekin shunga qaramasdan, ayni paytda bola ularga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos insoniy vositalarining birontasiga ham ega emas. Bu esa rivojlanishning ushbu bosqichidagi asosiy irsiy (genetik) vazifani, ya'ni kichkintoylarda kattalar bilan muloqot qilishning metod va vositalarini shakllantirish vazifasini belgilab beradi. Emotsional-vositasiz muloqot ushbu yoshdagi asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bolani ajratib qo'yish, kattalar bilan emotsional aloqalarning kamligi bola hayotining birinchi oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

⁸ Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti. –T.: 2020y.23.12,802-son

Go'daklik yoshida bolaning ayniqsa kattalar bilan muloqoti jadal rivojlanadi, dastlabki mehr qo'yish shakllanadi, ijtimoiy kutishlar vujudga keladi (bola kattalardan muayyan hayotiy vaziyatlarga mos keluvchi harakatlarni kutadi), bola bilan kattalar o'rtasidagi sherikchilikning ilk ko'rinishlari shakllana boshlaydi. Bola o'zining qo'lidan hali hech narsa kelmasa-da, biroq kattalarning harakatlarini boshqarishni o'rganadi. Bu hol unda nutqning hali mavjud emasligidan qat'iy nazar, ro'y beradi. Uning ixtiyorida faqat ovoz munosabatlari va imo-ishoralargina mavjud.

1979 yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilini o'qitish muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot ob'yekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.SH.Nurmuhammedova va boshq.).

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, YE.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko'rsatilgan: atrofdagi olam lug'atini (so'z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug'atni til birligi sifatida o'zlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig'ida ham, til mantig'i borasida ham so'z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari YE.I.Tixeyeva, YE.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penyevskaya va boshqalar bolalarning og'zaki nutqi va hikoya qilishni o'zlashtirishining o'ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o'zaro bog'liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o'qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo'lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

A.N.Gvozdev ulkan hissa qo'shdi, u o'zining «Bolalar nutqni o'rganish masalalari» nomli kitobida (1961) bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o'zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan. Ye.A.Flerina «maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish muammosini tor darajada hal etish»ning xavfliligi haqida ogohlantirgan, maktabgacha yoshdagi bolani o'qitishning o'ziga xosligini ta'kidlagan: «Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo'li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg'ulotlar va maxsus mashg'ulotlarda tarbiyachining ko'rsatib o'tishi orqali o'qib-o'rganadilar». U o'zining tarbiya tizimida san'atga va undan har xil faoliyat turlarida, shu jumladan badiiy-nutqiy faoliyatda bola imkoniyatlarini

rivojlantirish uchun foydalanishga asosiy o'rinni bergan. A.P.Usova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitishning umumiy nazariyasini ishlab chiqqani holda unda ona tilini o'qitishga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining o'zi to'g'ri nutqiy rivojlanish kafolati bo'lib xizmat qiladi, chunki «bolalarning nutqiy rivojlanishiga shunday sifatlarni kiritadiki, ular odatda, oddiy sharoitlarda zaif rivojlanadilar». Ta'lim nutq rivojlanishi qonuniyatlari to'g'ri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta'minlaydi, hisoblaydi A.P.Usova. U bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin bo'lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat bergan. A.P.Usova ona tili bo'yicha dasturni o'zlashtirish uchun barcha bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish lozim, deb hisoblagan. Ayni paytda u mashg'ulot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish uchun ham ko'p ishlarni amalga oshirgan.

Tadqiqotchilarning asosiy e'tibori nutqiy mashg'ulotlar mazmuni va metodikasiga qaratildi, bu asta-sekin Ye.A.Flerina ogohlantirgan «nutqni o'rgatish» tushunchasining torayishiga, amaliyotda esa – nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar ahamiyatining oshishiga olib keldi. 60-70-yillarda bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini o'rganish ishlari faollashdi.

Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi bolalar o'quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilnoqda. Nazariy va amaliy tadqiqotlarda bunday o'quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etiladi.

1.2. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning hozirgi xolati

Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib

chiqadi». Bolalarni atrof-olamdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, atrof-olamga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi. Turli yosh guruhlarida bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metoddan keng foydalanadi.

Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bolalarni nutqiy tarbiyalash uchta o'zaro bir-biri bilan bog'liq sohani tashkil etadi. Bular: atrofni o'rab turgan olamdagi hodisalarni (real voqelikni) anglash va so'z bilan belgilash; atrofdagilar bilan aloqalarni va nutqiy munosabatlarni yo'lga qo'yish; tilni (uning ovoz tarkibini, lug'atni, grammatik qurilishini) oddiy anglash.

Bola ko'p obrazli ob'ektlar va hodisalar bilan, ularning xususiyatlari, harakatlari, holati, qurilishi va ularni belgilovchi so'zlar bilan; sabzavot va mevalar, mebellar, idish-tovoqlar, kiyim-boshlar, buyumlar detallari va qismlari nomlari bilan; harakat va holat nomlari bilan (onam oshpaz bo'lib ishlaydi, u tushlik tayyorlaydi, kirlarni yuvadi, kiyimlarni dazmollaydi) va aniqlovchilar bilan (onam yaxshi, mehribon, aqlli, chiroyli, sevimli va h.) tanishadi.

Bola sabab-oqibatli aloqalar, vaqtbay, muhit, miqdoriy va boshqa aloqalarni anglash bilan bir vaqtning o'zida ularni grammatik shakllarda va qurilmalarda (birlik va ko'plik son, ot kelishigi, fe'l zamonlari va turlari; orttirma zamonli murakkab gaplar, maqsad va h.k.) ifodalash usullarini o'zlashtiradi.

Bola grammatik vositalarning keng turini o'zlashtiradi. Masalan, «Nima yo'q» nomli didaktik o'yinida grammatik shakllardan foydalanadi: mo'yqalam, ruchka, qaychi va h.; «Sayyohatda» o'yinida o'ziga to'rt oyoqli do'stlar tanlaydi: sichqoncha, qurbaqacha, tulkicha, kirpicha; qo'g'irchoq uchun nonushta uyushtirar ekan dasturxonga choynakni, qanddonni va sutdonni qo'yadi va o'ylanib qoladi: qand uchun – qanddon, suxari uchun –suxaridonmi?

Bola tildan foydalangan holda uning xususiyatlarini o'rganadi, so'zlar va grammatik shakllar orqali u bilan sinovlar o'tkazadi. Bolalar aks ma'noli so'zlarning (antonimlar: katta-kichik, kuchli-zaif) o'zaro bog'liqligini, ma'no jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni (sinonimlar: kuchuk, kuchukcha, olapar), so'z yasovchi juftlikdagi so'zlarni o'zlashtiradilar. Ko'p ma'noli nomlar bilan

tanishadilar (qizchaning qo'li, qo'g'irchoqning qo'li, o'quvchining qo'li, dazmolning ushlagichi, qutining ushlagichi, kastyulning qulog'i, bolaning oyog'i, stulning oyog'i, gulning oyog'i, qushning oyog'i).

Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bola uchun kattalar bilan muloqot hamon tilni, nutqning shakl va vazifalarini o'stirishning asosiy manbasi sifatida chiqadi. Bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun uning o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'ynashi ham muhim ahamiyatga ega. Bir-biriga yaqin joyda o'ynar ekan bolalar o'yinda tengdoshining ham ishtirok etayotganidan va uning e'tiborini jalb qilganidan quvonadilar, o'zlarining o'yinlarini sharhlaydilar. Natijada birgalikdagi ko'ngilochar o'yinlar hosil bo'ladi, unda bolalar rollarni, o'rin bosuvchi narsalarni (bu tayoq ot bo'ladi, mana bu uchburchak esa telefon bo'ladi), o'yin harakatlarini so'z bilan ifodalaydilar, birgalikda harakat qilish, syujetni o'stirish haqida kelishib oladilar, unchalik murakkab bo'lmagan suhbatni olib boradilar.

Mustaqil o'yinlarda bolalarning kommunikativ ijodkorligi rivojlanadi. Bolalarning kattalar bilan birgalikda uyushtirilgan o'yinlari – xalq o'yinlari, syujetli-didaktik, teatrlashtirilgan, didaktik o'yinlar muhim vazifani bajaradi.

Uyushtirilgan o'yinlar keng umumrivojlantiruvchi mazmunga va tor didaktik mazmunga (fonetik, leksik, grammatik) ega bo'lishi mumkin. Keng umumrivojlantiruvchi o'yinlar bir vaqtning o'zida nutqqa yalpi ta'sir ko'rsatadi: bolalarni nutqiy hamjihatlikka (dialogga) kirishishga undaydi, suhbatdoshga, uning tashqi ko'rinishiga, ovozigacha, u tasvirlayotgan personajga e'tiborni jalb qiladi, nutqning tovush jihatiga (tovushga taqlid qilishga) va uning leksik tarkibiga (obrazli-ifodali so'zlar) yo'naltiradi, syujetni o'stirish, so'zni va ifodali harakatni taqqoslashni o'rgatadi. Xalq o'yinlari, syujetli-didaktik o'yinlar, ertaklar va adabiy asarlar bo'yicha turli xil o'yinlar (o'yin-sahnalashtirish).

So'zli didaktik o'yinlar nutqiy rivojlanish vazifalarini yanada tabaqalashtirilgan holda hal etishga, ya'ni: fe'llarni, sifatlarni, umumlashtiruvchi nomlarni («Uchadi-uchmaydi», «Mazasini ta'tib ko'r», «Yesa bo'ladi-yesa bo'lmaydi») faollashtirishga, so'z yasash usullarini shakllantirishga («Tavsifiga qarab top»,

«Choy ichish»), u yoki bu tovushni to'g'ri talaffuz etishni mashq qilishga («Kimning ovozi», «Sehrli qalpoqcha») yo'naltirilgan.

Bolalarning tovushlar, qofiyalar, so'zlar bilan mustaqil o'ynashi, uyushtirilgan o'yin jarayonida birdaniga ro'y beradigan til bilan o'ziga xos tarzda sinov o'tkazishlar alohida ahamiyatga ega. Folklor va mualliflik asarlaridagi til o'yinlari ulkan ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy muloqotning asosiy shakli dialog hisoblanadi. Nutqning vaziyatga asoslanganligi unga xos va mosdir. Bolalardan «to'liq javob» olishga intilmaslik darkor, bu muloqot mantig'iga ziddir. Qachonki bola kundalik turmushda o'zini qiziqtirgan mavzu yuzasidan o'z tashabbusi bilan fikr bildirsa - tarkiban rasmiylashtirilgan yoyiq gaplar o'z-o'zidan yuzaga keladi.

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o'yin, predmetlar va o'yinchoqlar bilan tajriba o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo'shilib ketgan, so'ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko'rinishiga ega bo'ladi.

Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o'rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi.

Bola hayotining to'rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o'yindagi sherik sifatida qolaveradi. Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh

yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so'rab, jonga tegishini salbiy baholaydi.

Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi o'yinlarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u o'z tengdoshlari o'rtasida o'z o'rnini anglay boshlaydi. Kommunikativ qo'nikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, do'stini ismini aytib chaqiradi, to'rt-besh yoshlarga kelib – sherigini u o'ynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon g'ildirakning tagiga tushib ketdi»).

Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga o'zining «men»ini anglash imkonini beradi. Aynan muloqotda «men» obrazining shakllanishi ro'y beradi. Qulay tarbiya sharoitlarida, ya'ni kattalar va tengdoshlari bolaga xayrihohlik bilan munosabatda bo'layotganida uning ma'qullanishiga, ijobiy bahoga, tan olishga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. Salbiy muloqot tajribasi tajovuzga, o'ziga nisbatan ishonchsizlikka, odamovi bo'lib qolishga olib keladi.

Bolaning o'ziga-o'zi baho berishi, odatda yuqori bo'ladi. Kichik bolakay o'z shaxsini haddan tashqari yuqori baholashi tabiiy, o'rinlidir va bu kimdir uning shaxsiy xususiyotlarini salbiy baholagan («qizg'anchiq») yoki uning xulq-atvorini, faoliyatini qandaydir bir ideal bilan, masalan tengdoshi bilan taqqoslagan taqdirda, shaxsni himoya qilishning o'ziga xos mexanizmi hisoblanadi. Yosh o'tishi bilan bolaning o'z aytgan so'zlariga va hatti-harakatlariga, shuningdek, faoliyatning har xil turlaridagi o'z imkoniyatlari va yutuqlariga mos tarzda baho berish rivojlanadi. Besh yoshga kelib o'zi sodir etgan hatti-harakatlarni ularning boshqa odamning va uning o'zining jismoniy va emotsional ahvoli uchun keltirib chiqaradigan oqibatlari nuqtai-nazaridan baholashi mumkin. Unga «Agar men birovga yomonlik qilsam, bu unga ham, menga ham yoqmaydi, ikkimiz ham xafa bo'lamiz. Agar men yaxshi ish qilsam, ikkovimiz ham xursand bo'lamiz» degan fikr-mulohazaning mazmuni tushunarli bo'ladi. Bolada qiziqishlar va qadriyat yo'nalishlari, o'g'il bolalar va qizlarga xos bo'lgan muayyan faoliyat turlarini va o'zini tutish usullarini afzal

ko'rish shakllana boshlaydi (masalan, qizaloqlar qo'g'irchoq o'ynashsa, o'g'il bolalar mashinalarni o'ynaydilar va h.k.).

Uch yoshli bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar:

- bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o'z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini qo'llab-quvvatlash;
- tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishni istashi, o'yin harakatlari, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag'batlantirish;
- bolangizning lug'at zahirasi insonlar, hayvonlar, o'simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o'yinchoqlar, texnik vositalar, narsa-buyum qismlari (ko'ylak yengi, cho'ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g'ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lashni (masalan, «Malika uyda ketdi» emas, « Malika uyga ketdi», «Kecha buvimnikiga boraman» emas, «Bugun buvimnikiga boraman») o'rgatishga alohida e'tibor berish;
- bolalarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaff qilishga o'rgatish.

Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti to'laqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim shartidir. Shundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot bo'yicha sheriklarining talabiga javob berish, ijtimoiy jihatdan o'zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomalalilik kabi xislatlarni tarbiyalamoq zarur. Kattalar (ota-onalar, pedagoglar) shuni tushunishlari lozimki, qator holatlarda salbiy muloqot tajribasi bolani biron-bir harakatga undamaydi, balki bolani insoniy munosabatlar olamida o'zini ko'rsatishdan «aynitadi», himoya mexanizmlari – o'zi bilan insoniy olam o'rtasidagi «devor», atrofdagi olamni «ko'rmaslik» paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin: bola odamlar haqidagi savollarga javob bermaydi, suratlarda odamlarni «ko'rmaydi», odamlar va hayvonlarni tasvirlovchi o'yinchoqlar bilan o'ynamaydi. Muloqotdan faol bosh tortayotgan bolaning dunyosiga qo'pol aralashish salbiy oqibatlariga va tajovuzga olib keladi. Salbiy kechinmalar

cho'qqisida o'ziga nisbatan tajovuz tug'uladi. Bolaga oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik jihatdan qulay bo'lishi, uning kattalar va tengdoshlari o'rtasida emotsional jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o'zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quyidagilar zarur:

- bolaga kattalar va tengdoshlarining turli emotsional holatdagi hissiyotlari va kechinmalari olamini ochib berish;
- bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilishi uchun sharoit yaratish;
- quvonchli, qayg'uli, xotirjam, emotsional holatini ko'rish va tushunishga bo'lgan intilishni rivojlantirish;
- o'zini tutib turish va g'azab, qo'rquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishni rivojlantirish (boshqa bolani turtmaslik, urmaslik, o'yinchoqni qo'ldan tortib olmaslik va h.k.);
- jamiyatda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash: ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o'z iltimos va takliflarini xushmuomalalik bilan bildirish; yordam berganlik, mehmon qilganlik uchun, o'yinchoqni berib turganlik uchun minnatdorchilik izhor qilish; o'rtog'ining iltimosiga xushmuomalalik bilan javob qaytarish; javobini xotirjamlik bilan tinglash; o'rtog'ini xafa qilmaydigan ohangda o'z noroziligini izhor qilish.

Pedagogik ishlar to'g'ri tashkil qilinganida maktabgacha yoshdagi bola besh yoshga kelib ijtimoiy rivojlanishning quyidagi ko'rsatkichlariga ega bo'ladi:

- insoniy munosabatlarni tushunadi, atrofdagilarning unga nisbatan yaxshi va yomon munosabatlarini his qiladi va anglaydi; ota-onasining, tengdoshining emotsional ahvolidagi o'zgarishlarni payqaydi; diqqat-e'tibor, hamdardlik izhor qiladi;
- «men xohlayman!» vaziyatga oid bevosita istagini to'xtatib turishga qodir. Empatiya (hamdardlik) va emotsional ekspressiya (quvonch, qayg'u va boshqa holatlarni ifodalash) xususiyatidagi kechinmalar bola xulq-atvori va muloqotining tartibga soluvchisiga aylanadi;

- bolalar barqaror o'yin birlashmalariga kirishi mumkin, muloqotda va birgalikdagi faoliyatda quvonch, zavqlanish, qayg'u va boshqa holatlarni ifodalash uchun emotsional ekspressiv nutqiy va nonutqiy vositalardan foydalanadi.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaliylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

Bolalardagi ko'plab nutqiy *muloqot va ko'nikmalar* mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi. Maktabgacha talimda bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Mehnat jarayonida - xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi.

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo'lgan so'zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi. Matnli, harakatchan musiqiy o'yinlar, sahnalashtirish o'yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to'g'ri sur'at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydilar. Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof-alam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug'at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so'zni o'zgartirish, hikoya to'qish va h.q.) qo'llaniladi.

Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya'ni agarda

pedagog, ayniqsa, kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo'llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug'atdan foydalanishni o'rgatsa bolalarning lug'ati boyiydi. Agarda pedagog o'z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og'zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she'rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo'ladi.

I-bob bo'yicha xulosa

Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmati shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik, ko'tarinkilik holati, g'ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Suratlar, amaliy san'at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko'p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshiqadilar. Bolalar kun bo'yi rivojlantiruchi markazlarda, o'yinlarda, xo'jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o'z pedagoglari bilan muloqotda bo'ladilar. O'z-o'zidan maktabgacha ta'limda nutqiy muhitni rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bolalarni nutqiy tarbiyalash uchta o'zaro bir-biri bilan bog'liq sohani tashkil etadi. Bular:

- atrofni o'rab turgan olamdagi hodisalarni (real voqelikni) anglash va so'z bilan belgilash;
 - atrofdagilar bilan aloqalarni va nutqiy munosabatlarni yo'lga qo'yish;
- tilni (uning ovoz tarkibini, lug'atni, grammatik qurilishini) oddiy anglash.

«Ilk qadam» davlat dasturining maqsadi. «Maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari»ning bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan yetuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek,

mustaqil va ongli yashaydigan bolani tarbiyalashdan iboratdir. Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

II. Bob. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari.

2.1 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish mazmuni.

Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlardan foydalanish orqali bolajonlarga ta'lim-tarbiya beriladi.

Ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) uslublaridan va xilma-xil formalardan: mashg'ulotlardan ekskursiyalardan kundalik hayotga mehnatdan kuzatishlardan uchastka va tabiat burchagidan o'yinlardan foydalaniladi. Natijada bolalarda bilimlarni egallash malaka va ko'nikmalarni hosil qilish qobiliyatlarini o'stirish ilmiy dunyoqarashlarni axloqiy sifatlarini xulq atvorlarini shakllantirishga erishiladi.

Ushbu o'quv dasturi eng yaxshi xalqaro amaliyot hamda Janubiy Koreya tajribasi asosida ishlab chiqilgan. "Ilk qadam" o'quv dasturining asosiy maqsadi hayoti davomida uzluksiz rivojlanishga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirish.

Ushbu zamonaviy pedagogik tizimning asosiy o'ziga xosligi bolalarda o'qishga qiziqish uyg'otish hisoblanadi. Bu esa bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishga alohida e'tibor berish kerak deganidir".

Tizimdagi yana bir qiziqarli yangiliklardan biri bu bolaning rivojlanish kartasi paydo bo'lishidir. U o'zida bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrini qamrab oladi. Karta bir yilda uch marta to'ldiriladi. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotsini bitirganidan so'ng ya'ni 6—7 yoshda bolaning maktabga tayyorligi kartasi ham to'ldiriladi.

Ushbu jarayon davlatning yangi talablariga asoslanadi. U bola rivojlanishining beshta asosiy yo‘nalishini qamrab oladi:

- Jismonan rivojlanish va sog‘lom hayot tarzini shakllantirish ;
- Ijtimoiy — emotsional rivojlanish ;
- Nutq, suhbatlashish, o‘qish va yozishdagi yutuqlari ;
- Bilim olish jarayonining rivojlanishi ;
- Ijodiy rivojlanish.

MTTda dasturni amalga oshirishda har bir bolalarga quyidagi sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yish lozim:

- ijodkorlik, tasavvur, zukkolik;
- mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish;
- muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini topish;
- jamiyat, mamlakatlar, atrof-muhit muommolariga befarq qaramaslik.

Kichik guruh «Atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish va uni anglash» bo‘limida «Ona Vatan va atrof-olam», «Buyuk siymolar va bayramlar», «Kattalar mehnati», «Buyumlar», «Ustki kiyimlar», «Bola o‘z tanasining qismlarini o‘rganishi», «Jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish» hamda o‘tilgan mavzularni o‘quv yilining oxirida umumlashtirib mustahkamlanishi ko‘rsatilgan.

O‘rta guruh «Atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish va uni anglash» bo‘limida «Ona Vatan va atrof-olam», «Buyuk siymolar va bayramlar», «Kattalar mehnati», «Transport vositalari», «Buyumlar haqida», «Ustki kiyimlar», «Bola o‘z tanasining qismlarini o‘rganishi», «Jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish» hamda o‘tilgan mavzularni o‘quv yilining oxirida umumlashtirib mustahkamlanishi ko‘rsatilgan.

Katta guruh «Atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish va uni anglash» bo‘limida «Ona Vatan va atrof-olam», «Buyuk siymolar», «An’anaviy bayramlar», «Mashhur sarkardalar», «Xalq amaliy san’ati», «Kattalar mehnati», «Transport va aloqa vositalari», «Buyumlar», «Ustki kiyimlar», «Bola o‘z tanasining qismlarini o‘rganishi», «Jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida tasavvurga

ega bo‘lish» hamda o‘tilgan mavzularni o‘quv yilining oxirida umumlashtirib mustahkamlanishi ko‘rsatilgan.

Tayyorlov guruh «Atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish va uni anglash» bo‘limida «Ona Vatan va atrof-olam», «Buyuk siymolar», «An‘anaviy bayramlar», «Mashhur sarkardalar», «Xalq amaliy san‘ati», «Kattalar mehnati», «Transport va aloqa vositalari», «Buyumlar haqida», «Ustki kiyimlar», «Bola o‘z tanasining qismlarini o‘rganishi», «Jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish» hamda o‘tilgan mavzularni o‘quv yilining oxirida umumlashtirib mustahkamlanishi ko‘rsatilgan.

Dasturda tevarak-atrof o‘rganish va anglash (6-7 yosh) bo‘yicha quyidagilar beriladi:

- ✓ Ona Vatan va atrof-olam. Bolaning mustaqil O‘zbekiston haqidagi tasavvurlarini boyitish. O‘zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Xiva, Toshkent va Buyuk ipak yo‘li haqidagi bilimlarini mustahkamlash;

- ✓ Bolaga “Konstitutsiya saboqlari” asosida tushunchalar berishni davom ettirish;

- ✓ O‘zbekistonning mustaqillik kuni, davlatimiz ramzlari: gerb, bayroq va madhiyasi, O‘zbekistonda davlat tili - o‘zbek tili ekanligi haqidagi bilimlarini takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan boshqarilishi, O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shaxri ekanligi haqidagi tushunchalarini mustahkamlash;

- ✓ O‘zbek xalq ogzaki ijodi namunalari asosida bola qalbida o‘z millatiga muhabbat, milliy g‘urur hissini tarbiyalash;

- ✓ Buyuk siymolar. Bolani tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish;

- ✓ Ulug‘ allomalar: Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, musavvir Kamoliddin Behzod haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash;

- ✓ Bayramlar. Bolaning umumxalq bayramlari 1-sentyabr - Mustaqillik kuni; 1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni, 8- dekabr - O‘zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, 1-yanvar - Yangi yil bayrami, 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami, 21-mart - Navruz bayrami, 9-may - Xotira va qadrlash kuni haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va boyitish. Bolalar bilan birgalikda 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kunini va Xayr bog'cham bayramlarini nishonlash;

✓ Shakl va mazmun jihatdan xilma-xil bo'lgan bayramlar, sayllarni muntazam ravishda tashkil qilib turish. Masalan, "Mehrjon", qovun sayli, qushlar, gullar bayramlari va b;

✓ Mashhur sarkardalar. Bolaning ulug' sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muxammad Bobur haqidagi bilimlarini kengaytirish;

✓ Bolaning O'zbekiston harbiy qo'shinlari va ularning vazifasi, 14-yanv

✓ +-ar harbiylarning kasb bayrami ekanligi haqida tasavvurlarini kengaytirish. Bolada Vatanga muhabbat, uni ko'z qorachig'idek saqlash hissini tarbiyalashni davom ettirish;

✓ Xalq amaliy san'ati. Bolani o'zbek xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchiligidan: zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, ganchkorlik kabilar bilan tanishtirish. Xalq ustalari tomonidan tayyorlangan buyumlardagi; kashtachilarning tikkan so'zanalari, zargarlarning nozik did bilan yasagan taqinchoqlardagi go'zallikni, ranglar jilosini his qilishga undash. Shu tariqa bola qalbida xalq ijodiyotiga, amaliy san'at asarlariga nisbatan qiziqish hissini tarkib toptirish;

✓ Kattalar mehnati. Bolaning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishni davom ettirish. Ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish. Bolani mehnatning shu hududda tarqalgan turi bilan tanishtirish, yaqin atrofdagi ishlab chiqarish korxonalariga (*mebel, avtomobil, televizor, to'qimachilik, chinni, novvoyxona va h.k.*) olib borish, korxonaning nomi, u yerda kimlar ishlashi, ishlab chiqaradigan mahsulotlari, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish;

✓ Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning xalqimiz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida to'xtalish. Mashinasoz, tikuvchi, kosib, o'ymakor, bo'yochi kabi kasblar bilan tanishtirish;

✓ Ishning maqsadi, natijasi va ularning jamiyat uchun ahamiyati, turli xil "aqlli" mashinalarning kishilar mehnatini yengillashtirishi, mahsulotlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni tezlashtirishdagi roli haqidagi bilimlarini kengaytirish;

✓ O'zbekistondagi ishlab chiqarish korxonalarida ro'zg'orga kerakli maishiy texnika asboblari - "Artel" nomi ostida chiqarilayotgan mahsulotlar (*muzlatkich, sovutgich v.b.*), mashinalar ("*Spark*", "*Neksiya*", "*Lasetti*" v.b.), kiyimlar, matolar va iplar chiqarilishi haqida bolaga qiziqarli tarzda hikoyalar aytish, bu mavzuda maroqli suhbatlar o'tkazib, uning qalbida erishayotgan muvaffaqiyatlarimiz bilan faxrlanish, kasblarga qiziqish tuyg'usini uyg'otish;

✓ Bozorlarning turlari (*deuson bozori, kiyim-kechak buyum bozori, surilish mollari bozori v. b.*) haqida tasavvurlarini mustahkamlash;

✓ Bolada kattalar mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ko'pchilik foydasiga mehnat qilish ishtiyoqini tarbiyalash. Bino ichini va ajratilgan yer maydonchasini ozoda va tartibli saqlashga odatlantirish;

✓ Bolaga nonushta, tushlik va kechki tushlikda stolni qanday bezashni: idishlarni, qo'shiqlarni, nondonni mustaqil ravishda chiroyli qo'yib chiqishga va yig'ishtirishga o'rgatish. Mazmuniga qarab mashg'ulotlar uchun materiallar tayyorlashga, ularni joy-joyiga qo'yishga odatlantirish. Bola o'yinchoqlar, materiallar va qo'llanmalar qo'yilgan shkaflarni tartibli saqlash; stol va stullarni, deraza tokchalarini artish; yechinish va yuvinish xonasini ozoda va tartibli saqlash; kitob burchagini tartibga keltirish, yangi kitoblar bilan bezashda tarbiyachiga yordamlashish, o'ynab bo'lgandan so'ng o'yinchoqlarni joyiga kuyishni, bog'bonga ko'maklashishni bilishi kerak;

✓ Bolada kichik guruhlardagi bolalarga o'yinchoqlarini yig'ishtirish va tuzatishda, yer maydonchasini tozalashda, qum saqlanadigan joyni tartibga keltirishda yordam qilish istagi va ko'nikmasini tarbiyalash;

✓ Kasb-hunarga oid turli o'yinlar ("*Chevar*", "*O'qituvchi*",

“Hamshira”, “Bozor-bozor”) o’ynash;

✓ Transport va aloqa vositalari. Bolaning yol harakati qoidalarini haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash. Transport vositalari, pochta aloqa xizmati, pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida ma’lumot berish. Telefon aloqasi va telegrafchilar, ularning mehnati, telefon xizmatining hayotimizda tutgan o’rni haqida tushuncha berish. “Pochta-pochta”, “Kimga nima kerak?”, “Telefon-telefon”, “Kompyuter”, kabi mavzularda suhbat va o’yinlar tashkil etish;

✓ Buyumlar. Buyumlarning bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash. Matodan qilingan buyumlar, ularning turlari va foydalanish usullari; temir va yog’ochdan ishlangan buyumlar va ulardan to’g’ri foydalanish haqidagi tasavvurlarini yangi mavzular bilan boyitish. Buyumlarning yasaliishi va ishlatilishi haqida suhbatlar tashkil etish;

✓ Bola o’z tanasining qismlarini va gigiyenani o’rganadi. Bolani sog’lom turmush tarziga odatlantirish. Ularga odamning ichki a’zolari (*yurak, jigar, oshqozon o’pka*) va ularning joylashuvi, vazifalari haqida (*inson o’pka orqali nafas oladi, havo qanchalik toza bo’lsa, o’pka shunchalik yaxshi ishlaydi. Yurak inson hayoti uchun eng kerakli a’zolaridan hisoblanadi. U ishlayotganini bildirib doim “duk-duk” urib turadi. Jigar sonni tozalaydi. Biz istemol silayotgan ovqat oshqozonga tushadi va hazm bo’ladi*) ma’lumot berish. Bu a’zolar tananing qayerida joylashganini ko’rsatish va nomini aytishga o’rgatish;

✓ Bolaning sog’lom hayot kechirish (*ozodalikka va kun tartibiga rioya qilish, jismoniy mashqlar bajarib, tanani chiniqtirish va soglom ovqatlanish*) haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash;

✓ Odam va hayvon o’rtasidagi bir necha farqlanuvchi va umumiy jihatlar haqidagi tushunchalarni aniqlash va kengaytirish. Rivojlantiruvchi markazlardagi olib borilayotgan faoliyatlarda odamning tuzilishi aks ettirilgan turli rasm va badiiy asarlardan foydalanish.

O’quv yili oxirida bola:

- O’zbekistonning Mustaqillik kunini, davlatimiz ramzlari: gerb, bayroq,

madhiyani. O'zbekistonning poytaxti - Toshkent ekanligini biladi;

- O'zbekistonda davlat tili - o'zbek tili ekanligini biladi;

- O'zi yashaydigan ko'cha, mahalla, qishloq, tuman yoki shaharning nomini biladi;

- hududdagi yodgorlik binolari va boshqa tarixiy manbalar haqida tushunchaga ega;

- Buyuk allomalardan: Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod haqida ma'lumotga ega;

- Buyuk sarkardalardan: Amir Temur, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi haqida biladi;

- umumxalq bayramlari Mustaqillik kuni, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, Yangi yil bayrami, Xalqaro xotin-qizlar bayrami, Navruz bayrami, Xotira va qadrlash kuni bayramlari haqida tushunchaga ega;

- harbiy qo'shinlar va ularning vazifasi haqida ma'lumotga ega;

- xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchiligi haqida tasavvurga ega;

- o'zining mustaqil dalillarini keltirib, voqealarni muhokama qila oladi;

- yo'lda harakatlanish va ko'chada o'zini tutish qoidalarini biladi;

- odamning bir necha organlari va ularning vazifalarini biladi (*o'pka bilan nafas olamiz, jigar sonni tozalaydi ...*);

- odam va hayvon o'rtasidagi bir necha farqlanuvchi va umumiy jihatlarni ayta oladi.

Tevarak-atrof bilan tanishtirish uslublaridan ko'rgazmali metodlar:

KUZATISHLAR- kuzatish atrof olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilim faoliyati bulib unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kuzatish — atrof-olam jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda sezgilan bilan qabul qilib olishdir.

Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqarori diqqat talab etiladi.

Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari atrof-olam haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish yo'li bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan, biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, atrof-olam haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir. Bolalarda atrof-olamga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog'lom bo'lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga atrof-olamning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning «oltin zanjir» ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik ta'lim tarbiya berib boriladi.

«Atrof-olam bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning harakterli xususiyatidir», deb hisoblaydi I.P.Pavlov. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kattalarga «Bu nima?», «Nima uchun?», «Qanday qilib?» kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o'zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi.

Kuzatishlar davomiyligi va harakteri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. O'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishi, atrof-olamdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgari bilgan bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi.

Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug'orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda atrof-olam hodisalarini analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga yordam beradi. Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko'ra murakkab bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim, o'rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi.

Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra o'simlik va hayvonlar, obhavo hamda kattalarning atrof-olamdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek atrof-olam burchagidagi mashg'ulotlarda tashkil etiladi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, kattakichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, sathining harakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat harakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg'ir yog'ishi, kamalakning hosil bo'lishi kabi holatlar kiradi.

Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va atrof-olamga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim.

Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi. Kuzatishni tashkil etishda obyekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt yaxshi holatda, bo'lishi kerak,

ya'ni o'simlik so'limagan, navlari o'ralmagan, hayvon qo'lga o'rgatilgan, sogiom, bolalardan cho'chimaydigan bo'lishi zarur. Kuzatish atrof-olam burchagida bo'lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo'lishi, unga yaqinlashish qulay bo'lishi uchun yorug'lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o'ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o'zlarini erkin tutishlari, bemaolol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar atrof-olam burchagida qulay joylashib o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishni boshqarish. Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o'tkazayotgan bo'lsa, dastlab bolalarda hosil bo'lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1—2 daqiqa tomosha qildirib turadi.

Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilmaxil usullardan — bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab ko'rish, qiyoslash, o'yin harakatlaridan foydalanadi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma'umotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg'otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she'rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarida esa badiiy asarlarni o'qishdan foydalanadi.

Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o'rta yosh guruhlardan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina obyektning kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroqdir. Bu o'rinda tarbiyachi o'z diqqate'tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalari esa tarbiyachining barcha ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari birbirlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o'zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo'ladi. Kuzatishning bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.

Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning bargi, mevasi, urug'i, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi.

Kuzatishda qatnashgan har bir bolaning va tarbiyachining qo'lida tarqatma material bo'lib, kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga savollar berib, narsalarni tekshirishni tashkil etadi. So'ngra olingan tasavvurlarni qiyoslab, bolalarni xulosa chiqarishga o'rgatadi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi barcha bolalarning yuqori faolligini ta'minlaydi.

Amaliy metod va uning turlari:

O'yin. Atrof-olamning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilmaxil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida atrof-olam dagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o'rgatadi.

Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda predmetli, stolbosma va og'zaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Predmetli o'yinlar — barglar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan «Ajoyib qopcha», «Mevalar va ildizlar», «Bu butoqda kimning bolakaylari» va shu kabi o'yinlardir. Bu o'yinlar yordamida bolalar faol muloqotda bo'ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlari boyitiladi. Predmetli o'yinlar, ayniqsa kichik va o'rta yosh guruhlarida keng qo'laniladi. Bu o'yinlar bolalarga atrof-olam Jismlarining o'zidan foydalanish, ularni qiyoslash, hamda ularda sodir bo'ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o'zgarishlarni qayd qilish imkonini beradi. Predmetli o'yinlar barcha yoshdagi guruhlarining biroz murakkablashtirilgan bilimlarini

kengaytirish, tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Stolbosma o'yinlari — «Yilning to'rt fasli», «Kichkintoylar», «Mevalar», «O'simliklar», «Barglarni terib ol», «Juft rasmlar» va shu kabilardir. Bu o'yinlar bolalarning o'simliklar, hayvonlar jonsiz atrof-olam hodisalari haqidagi bilimlarini o'zlashtirish, aytilayotgan so'zga qarab predmetni tasvirlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O'yin so'z bilan birgalikda olib boriladi, so'z yo rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o'yin bilan uyg'unlashib ketadi. Bunday o'yinlar ozchilik bolalar bilan o'tkaziladi.

Og'zaki o'yinlar («U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi», «Suvda, havoda, yerda», «Kerakkerak emas» va shu kabilar) hech qandayjihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o'ynaladi. Bu o'yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Atrof-olamga oid o'yinlarni o'rganish barcha didaktik o'yinlar uchun umumiy bo'lgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o'yinni bolalar bilan birga o'ynaydi, o'yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiyoq tadbiq qiladi. Takroriy o'yinda esa qo'shimcha qoidalarni aytadi. Ikkinchi bosqichda tarbiyachi o'yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o'yinni boshqarib turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o'ynaydilar.

O'rta yosh guruhdan boshlab o'yinga o'rgatish usuli o'zgaradi. Awal tarbiyachi o'yinning mazmunini aytib, oldindan 12 ta muhim qoidani ajratib ko'rsatadi. O'yin davomida u bu qoidalarni yana birborta'kidlaydi. O'yin harakatlarini ko'rsatadi, qo'shimcha qoidalarni beradi. Keyingi bosqichda bolalar mustaqil o'ynaydilar. Tarbiyachi o'yinni kuzatib turadi, xatolarni to'g'rileydi, nizolarni bartaraf qiladi. O'yinga qiziqish susaygan vaqtda tarbiyachi o'yinning boshqa turlarini taklif qiladi.

Atrof-olamda bolalar mehnatini tashkil etishda bolalarning atrof-olamdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat qilish jarayonida bolalarda

atrof-olamga bo'lgan munosabatlan shakllanadi. Atrof-olamdagi mehnat bolalarda berilgan topshiriqqaj mas'uliyat bilan yondoshishni tarbiyalaydi. Biroq buning uchun bolalar zarur mehnat malakalarini egallab olgan bo'lishlari, o'z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Atrof-olamdagi mehnati maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulayj sharoitlar yaratadi. Tarbiyachi bolalarni mehnat orqali maqsad vaj natijalarga erishish, narsalarni sensor belgilarini nazarda tutishga o'rgatadi. Masalan, o'simlikning suvga muhtojligini aniqlash uchun| uning holatini - barg va poyasining elastikligi, pishiqligi yoki uning so'lg'inligi, yumshoqligini, tuproqda esa - uning namligi, zichligi va shu kabi belgilarni hisobga olish lozim.

Mehnat jarayonida bolalar o'simliklar holatining yorug'likka, | namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo'lgan ehtiyojlarini qonJ dirilishiga bogiiq ekanligini anglab oladilar. Bolalar muhitninj o'zgarishi, qonuniy tarzda o'simliklar holatini ham o'zgartirishinl bilib oladilar. Bu munosabatlarni o'zlashtirishlari ularning mehl natga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir etadi — mehnat ongli va niaqsadga yo'naltirilgan bo'lib boradi. Bolalarda mehnatga qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi.

Atrof-olamdagi mehnat — kuzatuvchanlikni o'stirish usullaridan biridir. Agar kuzatish mehnat bilan bog'langan bo'lsa, samaraliroq bo'ladi.

Atrof-olamdagi mehnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta'limiy vazifalar ham hal qilinadi. Bolalar mehnat orqali, o'simliklarning xususiyatlari va sifatleri, ularning tuzilishi, ehtiyojlari, rivojlanishining asosiy bosqichlari, o'stirish usullari, o'simliklar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar haqida, hayvonlar, ularning tashqi ko'rinishi, ehtiyojlari, harakat qilishlari, hayot tarzlari va ularning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shu jumladan, hayvonlarni atrof-olam burchagida parvarish qilishni o'rganadilar va shu orqali mehnat malakalarini egallaydilar.

Bolalarni atrof-olamdagi mehnati individual topshiriq shaklida va jamoa tarzida tashkil etiladi. Individual topshiriq bolalar bog'chasidagi barcha yosh guruhlarda qo'llaniladi. Bular tarbiyachiga bolaning xatti-harakatini puxtaroq boshqarish: yordam ko'rsatish, qo'shimcha tushuntirish, maslahat berish, topshiriqning

bajarilishini nazorat qilish, bolaning faoliyatini boshqarish imkonini beradi. Bularning barchasi malaka hamda ko'nikmalarning aniq va mustahkam shakllanishiga, shuningdek, topshirilgan ish uchun mas'uliyat his etish, g'ayrat bilan mehnat qilish odatining tarbiyalanishiga yordam beradi. Jamoa mehnati bir vaqtning o'zida guruhning barcha bolalarida mehnat malakalari va ko'nikmalarini tarbiyalashga imkon yaratadi. Mehnatning bu shakli jamoadagi munosabatlarning tarkib topishi uchun zarurdir. Bunda mehnatning umumiy maqsadini tushunish, kelishib olish, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, o'rtoqlarga yordam berish, ularning mehnatini baholash kabi muhim ko'nikmalar shakllanadi. Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyani bir qator vazifalarni hal etadi: bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni ustiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Predmet va hodisalarning xususiyati xamda sifatleri haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi, kattligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathining harakatini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri ular chiqaradigan tovushlarni ham o'rganadilar va hokazo. O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkab turi uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarga ob'ektning kuzatilayotgan holatini ilgari bilan qiyoslashga to'g'ri keladi. Bu kuzatishlar davomida bolalarning zehni va kuzatuvchanligi o'sadi. Analiz qilish, qiyoslash, xulosa chiqarish protsessi takomillashadi.

Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan ob-havo bilan kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirishda tashkil etiladi.

Kuzatishlar mashg'ulot va ekskursiyalarda, sayrlarda, tabiat burchagida va shu kabi joylarda olib boriladi. AMALIY METODLAR O'YIN- tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni atrof-olam bilan

tanishtirishda didaktik xarakterli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda klassifikatsiya qilishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar, xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi. Bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlardan foydalanishga o'rgatadi. Turli aqliy jarayonlarni aktivlashtiradi. Lug'atni boyitadi. Bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. O'yin mashqlari predmet va hodisalarni sifati hamda xususiyatlariga ko'ra farqlashga o'rgatadi. Kuzatuvchanlikni o'stiradi. Bu o'yinlar butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o'tkaziladi. O'yin mashqlari kichik va o'rta guruhlarda alohida ahamiyatga ega. Katta guruhlariga esa u sayirlarning bir kismi hisoblanadi.

HARAKATLI O'YINLAR- atrof-olam bilan tanishtirish harakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti harakati ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq. Bolalar bu o'yinlarda harakatlarga tovushlarga taqlid qilib bilimlarni chuqurroq egallaydilar. O'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qiziqishini chuqurlashtiradi. **Ijodiy o'yinlar.** O'yinda bolalar mashg'ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan tasavvurlarni aks ettiradilar. Kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar. Bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi. Ular kattalarning tabiatdagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar.

TABIATDAGI MEHNAT -bolalar mehnat obektlari o'simliklarning xususiyatlari va sifatlari ularning tuzilishi ehtiyojlari rivojlanishining asosiy bosqichlari o'stirish usullari o'simliklar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar haqida hayvonlar, ularning tashqi ko'rinishi ehtiyojlari, harakat qilish usullari, xatti harakatlari, hayot tarzleri va uning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ular yashash muhiti o'rtasida mutanosiblik o'rnatishni hayvonning tabiatdagi hayot tarzi va ularni tabiat burchagida parvarish qilishni o'rganadilar. Mehnatni tashkil etish formalari va ularga rahbarlik qilish metodikasi maktabgacha tarbiya davomida murakkablashib

boradi. Murakkablashish bolaning yosh imkoniyatlari, shuningdek mehnat faoliyatining o'sishi tufayli aniqlanadi.

OG'ZAKI METODLAR - bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan suhbatdan foydalaniladi.

Og'zaki metodlarda foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqini tushunishga bo'lgan qobiliyatlarini uzoq muddatli ixtiyoriy diqqatlarini va soz orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini, shuningdek, bolalarda muhokama aniqlash, sistemalashtirish predmeti bo'luvchi u yoki bu hodisa yoki fakt haqida yorqin tasavvurlarning bor yo'ligini e'tiborga oladi.

TARBIYACHINING HIKOYASI - hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalar nutqini eshitishi va tinglay olishi hikoya davomida uni anglab olishi og'zaki tasvir asosida yetralicha jonli obrazlarni aktiv tasavvur qilishi tarbiyachi hikoyasidagi voqea hodisalarni bir biriga bogliqligi hamda munosabatlarini aniqlash hamda tushunishi hikoya mazmunidagi yanglishlikni o'zining avvalgi bilim bilan qiyoslab ko'rishi lozim.

SUHBAT -didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga – oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo'lishi mumkin: birovlar kuzatiladigan ob'etlarni tor doirada kuzatgandan so'ng, boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovlari hodisalarning keng doirasini qamrovchilarni – bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar hayoti, hayvonlar, kishilarning mehnati haqidagi bilimlarini sistemalashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatlarda-bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda o'rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda guruhning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim protseslari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum sistema hamda izchillikda o'stiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boriladi. Mashg'ulotlar ularni aniqlash va

sistemalashtirish imkonini beradi. Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatlarning ta'limiy vazifasi-bu bolalarga markazlarda berilish yoki aniqlanishi hamda konkretlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hajmidir. Bunga yana bolalarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishni qo'shish mumkin. Rivojlantiruvchi markazlarda hal etiladigan tarbiyali vazifalar. Tabiatga ijobiy ehtiyotkorona, g'amxo'rona munosabatni shakllantirish. Tabiatga estetik munosabatni o'stirishga yo'naladi.

Rivojlantiruvchi markazlarda ishlashga tayyorlanish hamda uni otkazishda markazlarda ishiashning tuzilishi metodini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob'ektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir.

Markazlarda ishiash davomida topshiriqni bajarishga barcha bolalarni jalb qilish muhimdir. Rivojlantiruvchi markazlarda ishlashning oxirida qoidaga binoan tarbiyachi bolalarni malaka va ko'nikmalarini ularning mashg'ulotga munosabatlarini, qiziqishlarni pedagogik jihatdan baxolaydi. Baholarning diferentsiyalashuvi bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

Ekskursiyalar-ekskursiya bolalarni atrof-olam bilan tanishtiruvchi faoliyat turidan biridir. Ekskursiyalar vaqtida bola tabiat hodisalarini mavsumiy o'zgarishlarni tabiiy sharoitda kuzatish insonning hayot talablariga muvofiq tabiatni qanday o'zgarayotganini va tabiat kishilarga qanday xizmat qilayotganini ko'rish mumkin.

Ekskursiya mashg'ulotlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlar, ular yashaydigan muhitni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekskursiya bolalarga tabiatda mavjud bo'lgan o'zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash tasavvurlarini olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni uzgarishiga qiziqish usadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning xarakterini xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar. Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taassurot qoldiradi. Estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda yana tabiatga muhabbat, unga

ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, vatanga muhabbat shakllantiriladi.

Ekskursiyalarni uyushtirish. Ekskursiyadan mashg'ulot turi sifatida o'rta, katta hamda tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

KUNDALIK HAYOTDAGI ISH - mashg'ulot va ekskursiyalardagi kuzatishlarni kundalik hayotdagi, shuningdek boshqa formalari bilan uzviy aloqada olib boriladi.

SAYRLAR -bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish uchun sayrlardan keng foydalaniladi. Sayrlar vaqtida tarbiyachi bolalar tasavvurining shakllanishi uchun uzoq muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bolalarni qorning erishi, kurtaklarning bo'rtishi, maysaning paydo bo'lishi va shu kabilar bilan tanishtiriladi.

Sayrlarda tabiiy materiallar qum, loy, suv, muz, barg, va shu kabilar bilan xilma-xil o'yinlarni tashkil etish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi tajribasi yig'iladi, ular tabiat hodisalarini barcha aloqa va munosabatlarda tabiiy sharoitlarda ko'radilar. Sayrlar bolalarda qiziqish uygotadi, ularga katta quvonch, atrof-olam bilan munosabatda bo'lish esa lazzat baxsh etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolani atrof-olam bilan tanishtirish orqali bolaning har tomonlama bilimlarini egallashi psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o'sishi, ilmiy dunyoqarashini shakllanishi axloqiy sifatlarni ijobiy xulq odatlarini o'zlashtirilishi estetik hissiyotlarni rivojlanishiga erishiladi.

Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taassurot qoldiradi, estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, vatanga muhabbat shakllantirib, tabiatni o'rganishga qiziqish (jonli va jonsiz tabiatga) o'sadi.

2.2. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali shakllari

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish-bu ularda tabiatga bo'lgan munosabatni tarbiyalash va tajribaga asoslangan atrof-muhit

haqidagi real bilimlarni ta'limiy vositasidir. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta'lim Tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama aqliy, estetik, ahloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat go'zalligini idrok qilishga tayyordirlar, shuning tarbiyachilar va ota-onalar bolalarda atrof-olamga estetik munosabatini tarbiyalash, tabiatni estetik idrok etishga tayoyrlash, tabiatga ekskursiya uyushtirish, tabiatni kuzatish, tinglash ularni anglash, eshita olish, klassik musiqa barcha faoliyatning tasviriy turlariga qiziqtirish jalb qilish kerak. Bularning barchasi bolalarda e'tiborlilikni fantaziyaning ijodiy intilishini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat dasturida tabiat bilan tanishtirish rasm chizish, qurish - yasashga alohida e'tibor berilgan. tevarak-atrof haqidagi bilimlarini boyitish bilan birga, bog'lanishli nutqni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, 1-sentabr mustaqillik kuni umumhalq bayrami sifatida nishonlanar ekan, avval guruhdagi ertaliklar, so'ng bolalarning ota-onalari bilan Toshkentdagi mustaqillik maydoniga, shahardagi milliy boqqa sayohat uyushtirish natijasida ularning lug'atida mustaqillik bayrami, mustaqillik maydoni, milliy bog', Alisher Navoiy xaykali, O'zbekistonning birinchi Prezidenti – I.A.Karimov, O'zbekiston Gerbi, O'zbekiston bayrog'i, O'zbekiston madhiyasi, Toshkent – O'zbekiston poytaxti, metropoliten kabi tushuncha va birikmalar bilan boyiganligining guvohi bo'ldik. Bolalarning so'z zahirasi bevosita ko'rgan-kuzatganlari asosida o'rnatilgan degan xulosaga keldik.

Masalan, Toshkent shaxri bo'ylab sayohat natijasida bolalarning lug'at boyligiga birdaniga bir necha mavzu bo'yicha so'zlar, birikmalar qo'shiladi. Masalan, Amir Temur maydoni, Amir Temur haykali, Amir Temur – buyuk sarkarda, Toshkent mehmonhonasi, «O'zbekiston» mehmonhonasi, O'zbekiston tarixi muzeyi, San'at saroyi, Milliy teatr, Markaziy univermag, Chorsu bozori,

Hayvonot bog'i kabilar shular jumlasidandir. Bular 6-7 yoshli bolalarning kundalik turmushda hali ishlatilmasa-da, ularning xotirasi kuchli bo'lgani bois so'z va birikmalarni yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat butun yil davomida turli badiiy va tabiiy materiallardan foydalanishni ko'zda tutadi. Bunday markazlardagi faoliyatni tashkil etishdan oldin yasaladigan tabiiy materiallardan qilinadigan narsalarni mazmunini bolalarni ongli ravishda tushinib etishga yo'naltiruvchi tarbiyaviy xususiyatini hisobga olish kerak. Tarbiyachilar tabiiy materiallarni yig'ish. Qayta ishlash va saqlashni ko'zda tutish, yil davomida qanday o'xshatmalarni yasash mumkinligini rejalashtirib olishi kerak. Materialni butun o'quv yili uchun taxt qilib qo'yish lozim, chunki qishda hammayoqni qor qoplaydi. Kelgusidagi ishlarni mo'ljallab amalga oshirish g'oyasini izlash-bolalarda kuzatish, topqirlik, orzu, havas va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi muhim yo'ldir. Shuning uchun tarbiyachilar bolalar bilan bog'larga dalalarga hiyobonlarga oldin tashkiliy ishlar bilan birga metodik jihatdan ham tayyorlanishi zarur. Tarbiyachi bolalarga vazifalarni taqsimlaydi savat, yuk xalta, chelaklarga yig'ib solingan materiallarni saqlash va transportda tashishda javobgar shaxslarni belgilaydi. Tabiiy materiallar bilan ishlash asosan tabiatga ekskursiya uyushtirishdan, tabiatni estetik idrok etishdan boshlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda ekskursiyalarni o'rni beqiyosdir. Ularni o'rab turuvchi tabiat go'zalligi chuqur kechinmalarini chaqirib, estetik tuyg'ular rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tabiiy materiallarni yig'ish faqat zavqli tomosha qilish aylanib kelish emas balki ularni urab turgan tabiatni kuzatadilar va ularga tabiatni asrashga dalarga olib chiqqanda kattalar mehnatini qadrlashga, atrof-olamni ozoda saqlashga o'rgatilib boradi. Bolalar tabiiy materiallardan narsa ya'ni chuchqa yong'oqlari, barglardan, paxtadan, tuxum po'chog'idan, urug'lardan biror nima yaratsa ular fantaziyasiga tayanib yaratadi bu esa ularni yangilik yaratishga undaydi va o'z ishidan zavqlanadilar. Tabiat materiallaridan birinchi marta tabiiy materiallardan narsalarni qo'lda yasashdan oldin bolalarni asbob-uskunalar bilan ishlash usullarini o'rgatish va xafvsizlik texnik qoidalari bilan tanishtirish lozim. Bolalarga kesuvchi va

sanchuvchi asboblari bilan ishlash biroz xavfliroq shuning, uchun tarbiyachi pedagoglar yoki ota-onalar ishlatishlari ma'qulroqdir. Ular tayyorlab berishsa bolalarga tabiiy materiallarni elimlash uchun pva kleylar yoki plastilin biriktirish texnologiyalarini o'rgatgati lozim.

Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda ko'rgazmali materiallardan foydalanishda quyidagicha mashg'ulot ishlanmadan foydalanish mumkin.

Xush kelibsan, Mehrjon!

Tarbiyachi:

– Bog'bon yig'ib hosilin,
Bozor tomon chog'lansa,
Ayting-chi, do'stlar bu chog',
Qaysi fasl bo'ladi?

Bolalar:

– Kuz fasli.

Tarbiyachi:

– Dehqon bobom belbog'in,
Yechib yoysa dalaga,
Birin-ketin angordan,
Ota bersa tarvuzin
Ayting-chi, ilk qadamlar
Qaysi fasl bo'ladi? **Bolalar:**

– Kuz fasli.

*Kuz momo, savati mevalarga
to'lgan bog'bon va poliz
ekinlarini ko'targan bobodehqon
sahnaga kirib keladilar.*

Mehrjon

Qambar Ota she'ri

TARBIYACHI:

– Xush kelibsan, Mehrjon,

Kuz momo:

– Elim bilmay hech tinim,
Mehnat qildi shomgacha.
Endi yig'ib hosilin,
Bayram qiling tonggacha.

Sahnaga poliz ekinlari va mevalar
chiqib keladilar.

Anor:

– Garchi bo'yim pastgina,
Po'stim ham yarashikli.
Mevam qizil donacha,

Anor shaklim o'zgacha. **Behi:**

– Malla tukli momiq po'st,
Artsang chiqar qattiq po'st.
Deyishar meni behi,
Mevalar shohi behi.

Shaftoli:

– Mayin tukli, momiqqina,
Yesang yumshoq, suvlikkina.
O'rik menga qarindosh,
Shaftoliman hali yosh.

Uzum:

– Gar o'rmalab o'ssam ham

Saxovatli sehrjon.
Shirin-shakar, lazzatli,
Qalb to'rida izzatli.
Sensan tenglik bayrami,
Bag'rikenglik bayrami.
Quchog'ing bolga to'la,
Hosil, iqbolga to'la.
*Raqqosa qizlar ijrosida kuz
raqsi.*

Mevalarim ko'p g'ujum.
Charos, toyfi, husayni,
Deydilar meni uzum.
Nok:
– Shaklim misli nosqovoq,
G'irchillayman yegan chog'.
Yesang deysan ko'p rahmat,
Nokman, kelgin marhamat.

Havo borligini qanday bilamiz?

Bola ulg'aygani sari atrof-olamga qiziqishi ortib boradi. Bu paytda uning savollar sandig'i ochilib, kattalarni biroz sarosimaga qo'yadi. «Osmon nega uzoq?», «Yulduzlarni sanasa bo'ladimi?», «Havo nega ko'rinmaydi?» deya qiziquvchanligini yashirolmaydi. Oila sharoitida bu kabi savollarga javob berish biroz mushkul bo'lsa-da, MTTda tarbiyachilar rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat orqali bolalar bilimlarini boyitib boradi. Bolalarni qiziqtirgan «Havoni ko'rish mumkinmi?» degan savolga Markazlarda ishlash orqaliy javob olamiz.

Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat maqsadlari:

a) ta'limiy: havo va suv bilan tajriba o'tkazish. bolalarning tevarak-atrof hamda tabiat haqidagi bilim va tasavvurini boyitish, ularning mantiqiy tafakkurini o'stirish, lug'aviy boyligini oshirish. Bolalarni chet tillarini o'rganishga qiziqtirish. O'quv yili davomida o'zlashtirgan bilim va malakalarini o'yinlar hamda tajriba-sinov orqali mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: kichkintoylarning suhbatda faol ishtirok etish, tinglash, o'rtoqlarining javobini bo'lmaslik, bir-biriga o'zaro hurmat hissini tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Kerakli jihozlar: uchar sharlar, idishda suv, naycha va koptok.

Sayirlarning borishi.

Bolalalar gilam atrofida aylana bo'lib turishadi.

Tarbiyachi: – Bolalar, kelinglar birgalikda o'yin o'ynaymiz. O'yinimiz «Havoda, yerda, suvda» deb nomlanadi. (Yerda yashaydigan jonzoqlar aytilsa,

o'tirib olish, suvda yashovchilarning nomi aytilsa, to'liqsimon harakat qilish, qushlar aytilganda qanot qoqish kerakligi tushuntiriladi).

O'yin davomida tarbiyachi aytgan jonzotlarning nomini to'liq aytish bolalardan so'raladi.

Tarbiyachi: – Toshbaqa (bolalar o'tirib olishadi). toshbaqa qanday nomlanadi? (Turtle). To'g'ri rus tilida esa toshbaqa «cherepaxa» deyiladi.

Tarbiyachi: – Kapalak (bolalar uchish harakatini bajaradi). Kapalak ingliz tilida nima deyiladi? (butterfly). To'g'ri, rus tilida esa kapalak «babochka» deyiladi. (O'yin shu tariqa davom etadi).

Tarbiyachi: –sizlar o'yinda juda faol ishtirok etayapsiz. Keling, ayni paytda yana bir o'yin o'ynaymiz. O'yinimizning nomi «Uydami, o'rmondami?»

Tarbiyachi o'rmon hamda uyda yashovchi jonzotlarning birma-bir nomini aytadi. Bolalar yashash joyini aytib berishadi.

Bolalar bir joyda o'tirganligi sabab, jismoniy toliqib qolishi mumkin. Besh daqiqa jismoniy mashq bajariladi.

Tarbiyachi: – Endi esa birgalikda havo va suv yordamida tajribalar o'tkazamiz. Bolalar qaranglar, bugungi mashg'ulotimizga uchar sharlar kelishibdi. Bittasi quvnoq, to'la, qip-qizil, ikkinchisi esa negadir horg'in, rangi oqargan, ozg'in va xafa. Siz nima deb o'ylaysiz, ikkinchi shar nega unaqa?

Bola: – Uning ichida havosi yo'q, havosi chiqib ketgan.

Tarbiyachi: – Bu shar dum-dumaloq bo'lishi uchun nima qilishimiz kerak?

Bola: – Puflash kerak.

Tarbiyachi: – Siz nima deb o'ylaysiz, bu sharni puflasak, sharning ichida nima paydo bo'ladi?

Bola: – Havo.

Tarbiyachi: – Havo qayerdan yig'iladi?

Bola: – Biz puflaganimizda yig'iladi.

Tarbiyachi: – Kelinglar, bolalar, hammamiz birga nafas olamiz. Endi kaftlarimizni og'zimizga qo'yib nafas chiqaramiz. Nimani his qildingiz? O'z sharingizni puflang, shar dumaloq, qattiq bo'lsin. Endi sharni yoningizdagi suv

bor stakanga solib mayda pufakchalar chiqquncha qo‘llar bilan qisamiz. Mayda pufakchalar qayerdan paydo bo‘ldi?

Bola: – Shar ichidan havo chiqqanida.

Tarbiyachi: – Endi yoningizda turgan naychani qo‘lingizga oling va kaftingizga qo‘yib puflang. Nimani his qildingiz? Endi naychani stakandagi suvga solib puflang? Nima bo‘ldi?

Bola: – Mayda sharchalar chiqdi.

Tarbiyachi: – Demak, bizga ko‘rinmaydigan havo shu tarzda namoyon bo‘ldi. Qarang, shar va naychadan havo chiqdi, chunki biz nafas olganimizda havoni yutib, so‘ng nafas orqali chiqaramiz. Havo bizni o‘rab turgan tevarakatrofimizda. Qani aytingchi havo bizga nima uchun kerak ekan?

Bola: – Nafas olish uchun.

Tarbiyachi: – To‘g‘ri, endi o‘ylab ko‘raylikchi, havo inson tanasiga qanday qilib kirib boradi?

Bola: – Og‘iz va burun orqali.

Tarbiyachi: – Barakalla ilk qadamlar. Sizlar juda to‘g‘ri aytdingiz. Og‘iz va burun havoning tanamizga yetib borishini ta‘minlaydi. Endi havoda parvoz qiluvchilarni sanaymiz.

Bola: – Qushlar, raketa, vertolyot, samolyot.

Tarbiyachi: – Juda to‘g‘ri javob berdingiz. Samolyotni hammamiz ko‘rganmiz. Qani birgalikda samolyot bo‘lib uchamiz.

Harakatli o‘yin: «Samolyotchalar».

Tarbiyachi: – Bolalar tasavvur qiling, biz samolyotdamiz. Samolyot uchishi uchun ko‘p havo kerak. Nafas oldik. Endi uchamiz, qanotlarimizni tekis yoyib, chiroyli va bir tekisda uchamiz. Yoqilg‘imiz tugayapti, sekin aerodromga qo‘namiz.

Barcha o‘z o‘rnini egallaydi.

Tarbiyachi: – Ilk qadamlar, kelinglar, shu koptok bilan bilimlarimizni yanada mustahkamlab olish uchun yana bir o‘yin o‘ynaymiz. Men sizlarga koptokni otib, savol beraman, siz esa javobini aytib koptokni qaytarasiz.

– Jonli tabiatga nimalar kiradi?

- Jonsiz tabiatga nimalar kiradi?
- Qanday tabiat hodisalarini bilasiz?
- Qanday gullarni bilasiz?
- Havo bizga nima uchun kerak ekan?

Ushbu savollarga javob olingach, barcha bolalar rag‘batlantiriladi.

Hayvonot olamiga sayr

Maqsad: bolalarga hayvonot olami haqidagi bilimlarni berish; hayvonlar, jonli tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish orqali ulardagi axloqiy sifatlarni tarbiyalash; hayvonot olami haqida tushuncha berish, ularni tasvirlash, hayvonot olamiga nisbatan ongli va axloqiy munosabatda bo‘lishni tushuntirish. Jamoaviy guruh shaklida o‘tkaziladigan ushbu sayirlarda bayon qilish, suhbat, savol-javob, “Klaster” organayzeridan foydalaniladi. Tarqatma material, hayvonlarning surati aks ettirilgan rasmlar kartochkalar mashg‘ulotni tashkil etishdagi asosiy vositalar hisoblanib, tarbiyachi har bir bolaning faol ishtirokini kuzatib boradi. Mashg‘ulotga oid savollar bilan murojaat qilish usuli ham bolalarni faollikka undab, e’tiborini, diqqatini jamlashga xizmat qiladi. Markazlardagi faoliyatso‘ngidagi rag‘batlantirish esa bolalarni kelgusi mashg‘ulotlarga qiziqishini oshirishi tabiiy.

Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatning borishi:

I-bosqich Tarbiyachi: – Ilk qadamlar, qanday hayvonlarni bilasiz?

Bolalar: – Yovvoyi hayvonlar, uy hayvonlari, qushlar, parrandalar.

Tarbiyachi: – Diqqat bilan rasmlarga qarab ularning turlari va farqlarini bilib olamiz. Ayting-chi, qaysi hayvonlar yovvoyi, yirtqich, qaysilari uy hayvonlari deb ataladi? Bularning qanday zararli va foydali tomonlari bor?

Bolalar ularning nomlari, o‘ziga xos xususiyatlari hamda zararli tomonlarini bilganicha ayta boshlaydi.

II -bosqich Tarbiyachi turli hayvonlar rasmlarini ko‘rsatib, bolalar bilan birgalikda ularni sinflarga ajratadi (klassifikatsiyalash); ya’ni uy hayvoni, yirtqich hayvonlar, parrandalar, qushlar rasmlarini ajratishadi.

III- bosqich Ushbu bosqichda tarbiyachi bolalarga o‘zlariga yoqadigan hayvon rasmlarini tanlab olishini taklif qilib, bolalarni guruhlariga ajratadi.

IV-bosqich Tarbiyachi bolalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtiradi.

Tarbiyachi: – Bolalar, siz hayvonlar haqida qanday she'r va ertaklar bilasiz?

Ushbu hayvonlarga munosabatingizni bildiring-chi?

– Hayvonlarni qanday parvarish qilinadi?

- | | | | |
|-----------------|---------|------------|-------------------|
| - Ularga | azob | berish | mumkinmi? |
| – Hayvonot | olamini | qanday | asrash mumkin? |
| – Hayvonlarning | inson | hayotidagi | ahamiyati qanday? |
- Bolalar o'rgangan bilimlari asosida savollarga javob topadi. Qaysi guruh faol qatnashsa, o'sha guruhga bayroqchalar tarqatiladi va qolgan guruh ishtirokchilari rag'batlantiriladi. Bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilganlik darajasi, hayvonot olamiga nisbatan axloqiy, ongli munosabatlarining shakllangani suhbat, muammoli savollar, test, kuzatish orqali aniqlanadi. "Klaster" metodi asosida tuzilgan sxema bolalarni hayvonot olamini klassifikatsiya qilishga o'rgatadi.

Tabiat shifokori

Sayirlarning maqsadlari:

ta'limiy: bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini boyitish, ularga asalari va qovog'arining farqini tushuntirish;

tarbiyaviy: tarbiyalanuvchilarda tabiatga mehr uyg'otish, ular nutqini rivojlantirish;

rivojlantiruvchi: bolalarning tez fikrlash, zukkolik va chaqqonlik qobiliyatini shakllantirish, xotira va tafakkurini rivojlantirish;

Kerakli jihozlar: asalari va qovog'arilar va ular uyining surati.

Sayirlarning borishi:

Bolalar stol atrofiga o'tirib olishadi. Tarbiyachi bolalar bilan salomlashib, bugun haftaning qaysi kuni va yilning qaysi fasli ekanligini so'raydi. Bolalar tarbiyachining savollariga ketma-ket javob qaytarishadi.

Tarbiyachi: – Bolalar, eng shirin mahsulotlarning nomini ayting.

Bolalar: – Shakar va asal (bir ovozda).

Tarbiyachi: – To‘g‘ri, ilk qadamlar. Bilasizmi, biz iste‘mol qiladigan asalni asalari tinmay mehnat qilib yig‘adi. Ayting-chi, ular qayerdan asalni yig‘ishadi.

Bolalar: – Asalarilar asalni chiroyli gullardan yig‘ishadi.

Tarbiyachi: – Barakalla, juda to‘g‘ri aytdingiz. Asalarilar gullarga qo‘nib, bir necha gramm asal yig‘ish uchun millionlab masofani uchib o‘tadi. Ko‘p gullarga qo‘nib, biz uchun mazali asal to‘playdi.

Shu payt ikki xil surat bolalarga ko‘rsatiladi. Topishmoq aytib bolalarning topqirligi sinaladi.

Tarbiyachi: – Bog‘da g‘ing-g‘ing uchadi,

Gul sharbatin ichadi.

Ko‘rsang uzun nayzali,

Hosil berar mazali.

Bolalar: – Asalari.

Bolalardan biri asalarining tuzilishi haqida so‘raydi.

Tarbiyachi: – asalarining organlari daraxt va o‘simlik gullaridan nektar yig‘ishga moslashgan (asalarilarning suratini ko‘rsatgan holda). Asalarilar orqa panjalaridagi majuz tuklari va savatchalari yordamida gul changini yig‘adi va tashiydi. Uzun tuxumchasi va buqog‘ida gul changini asalga aylantiradi. Endi ayting-chi, asalarilar qaysi faslda asal yig‘maydi?

Bola: – Ular qish faslida dam olishadi.

Tarbiyachi: – To‘g‘ri, bu faslda o‘simliklar gullamaydi, shuning uchun asalarilar yoz bo‘yi tinmay mehnat qiladilar, qish davomidagi oziqani butun yoz davomida ta‘minlaydilar. Qani, endi kim qanday maqol bilsa aytsin.

Said: – Mehnat – mehnatning tagi rohat.

Lola: – Mehnat baxt keltirar.

Tarbiyachi: – To‘g‘ri, asalarilar ushbu maqollarga amal qilar ekan. Asalarilarning mehnati qat‘iy taqsimlangan, ba‘zilari ovqat topadi va uni uyaga tashib keladi, boshqalari esa ularni qabul qilib, uyalaridagi mum kataklariga taqsimlab chiqadi, uchinchi, katak ichini tozalaydi, boshqasi esa qanotlarini qoqib, uyani shamollatib turadi, beshinchisi eshik oldida qo‘riqchilik qilib turadi va dushmanlarni uyiga kiritmaydi, oltinchisi esa qurtchalarni boqadi. Odamlar

qadimdan asalarilarni qo‘lga o‘rgatganlar, shu sababdan ham asalarilar qutilarda boqiladi, ular deyarli uy hasharotlari hisoblanib, ajoyib shifokorlardir.

Asalarining mehnatini kuzatib, «Maya asalarisi» multfilmidan parcha tomosha qilinadi. So‘ng bolalar charchab qolmasliklari uchun o‘rnidan turib, mashq bajarishadi.

Jismoniy daqida:

Ayiq asal yaladi ko‘p, ko‘p, ko‘p,

Arilar uni taladi xo‘p, xo‘p, xo‘p.

Yur yordamga boraylik tez, tez , tez,

Tartibga chaqiraylik biz, biz, biz.

Tarbiyachi mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob o‘tkazadi.

Tarbiyachi: – Asalarining qimmatbaho dorisi nima?

Nozima: – Qimmatbaho dorisi nishida.

Tarbiyachi: – Barakalla uning nishidan to‘g‘ri foydalana olsak odamlarni ko‘pgina dardlardan xalos qilamiz. Ko‘p asalari kishini chaqsa, noxush holatlarga olib keladi. Asalariga o‘xshash yana bir hasharot borki, bu qovog‘ari, ular asalaridek mehnat qilmaydi, insonni chaqsa, ba‘zilarga esa ta‘sir qilib shishib ketadi. Qovog‘arining asalaridan farqi shunda.

Qovog‘ari hamda asalari uyasining suratlari bolalarga ko‘rsatiladi va u haqida she‘r so‘raladi.

Sarvinoz: – Ishim bor juda muhim,

Bol yig‘aman butun kun.

Tegsang chaqib olaman,

Nishim ishga solaman.

Tarbiyachi: – Juda chiroyli she‘r ekan.

Markazlardagi faoliyatso‘ngida tarbiyachi bolalarga «Bolari va qovog‘ari» ertagini so‘zlab beradi.

Katta guruhlar uchun esa tevarak atrof bilan tanishtirishda ko‘rgazmali materiallardan foydalanishda “Ob-havoning tabiatning asosiy hodislari bilan bog‘liqligi” mavzusidagi quyida keltirilgan mashg‘ulotni o‘z tajribamizda qo‘llasak bo‘lad.

- ob-havoni aniqlay oladigan tabiatning asosiy hodisalari haqida;
- turli mavsumlarda tabiatdagi o'zgarishlar haqida;
- ob-havoni o'rganadigan va aytib beradigan odamlar haqida;
- ob-havoni aniqlash asboblari haqida (termometr va flyuger);
- bulutlarning turli turlari haqida tarbiyalanuvchilarning bilimlarini

mustahkamlanadi.

Yomg'ir, qor, jala, do'l, muz, kamalak, yaxmalak, tomchi, xazonrezgi, bulutlar, termometr, flyuger rasmlari yordamida "Klaster" grafik organayzeridan foydalaniladi.

Dastlab faollashtiruvchi savollar beriladi. Tarbiyachi: bolalar qani derazadan qarang-chi bugun ob-havo qanday?...*(bolalarning javobi tinglanadi)*

Tarbiyachi : Izohlab bering-chi...*(bolalarning javobi- ochiq, sovuq, bulutli ...)* keling siz bilan eslab ko'ramiz yana qanday ob-havo bo'lishi mumkin?...*(Tarbiyachi bolalarning diqqatini turli ob-havo tasvirlangan rasmlarga jalb qiladi. Bolalarning javobi: quyoshli, yomg'irli, bulutli, shamolli, ayozli, sovuq, ochiq)*

Tarbiyachi: Barakalla bolalar!

Tarbiyachi: ob-havoni o'rganib aytib beradigan kasb egalari qanday nomlanadi? *(bolalarning javobi- meteorologlar.)*

Ular ob-havoni qanday o'rganishadi? *(bolalar javobi – turli asboblari yordamida)*

Tarbiyachi: siz qanday ob-havoni o'rganadigan asboblarni bilasiz? *(Tarbiyachi termometr va flyuger tasviriga bolalar e'tiborini qaratadi).(Bolalarning javobi- termometr va flyuger).*

Tarbiyachi: Termometr nima uchun kerak ? *(bolalarning javobi- havoning haroratini o'lchash uchun)* Flyuger nima uchun kerak?..... *(bolalarning javobi- shamolning yo'nalishini aniqlash uchun).*

Tarbiyachi: bolalar ayting-chi, nima uchun ertangi kun ob-havosini bilish muhim? *(bolalarning javobi - zontik olish, issiqroq kiyinish va hokazo)*

Tarbiyachi: kimlar uchun ob-havoni bilish yanada muhim*(bolalarning javobi- ota-onalarimizga).*

Tarbiyachi: yana-chi? Qaysi kasb egalari ob-havoni bilish bizdanda muhim?.. *(bolalarning javobi- avtobus haydovchilari, uchuvchilar, dehqonlar).*

Tarbiyachi: Keling, eslaylik qaysi tabiatning hodisalari orqali ob-havoga baho berishi mumkin *(tarbiyachi tabiat hodisalari tasvirlangan rasm ko'rsatiladi (bolalarning javobi- yomg'ir, qor, jala, tuman, shudring, shamol, yaxmalak, muz, xazonrezgi).*

Tarbiyachi: hali meteorolog kasbi bo'lmasidan oldin ota-bobolarimiz turli tabiat belgilari asosida ob-havo qanday bo'lishini aniqlaganlar.

1) qaldirg'ochlar pastlab uchsa - ... (yomg'ir yog'adi)

2) yomg'ir chuvalchanglarini tuproqdan yuzaga chiqishi -....(yomg'ir yog'adi)

3) momoqaymoq guli yopilib qolishi - ... (yomg'ir yog'adi).

Tarbiyachi: yomg'ir yog'diradagan bulutlarni bilasizmi? Ular qanday nomlanadi?...*(bolalar javobi eshitladi)*

Tarbiyachi : momaqalldiroq gumbirlab chaqmoq chaqqanda qanday bulutlar hosil bo'ladi? *(bolalarning javobi- momaqalldiroq bulutlari, qora bulutlar)*

Mashg'ulotni mustahkamlashda rasmlarga qarab fasllarda qanday tabiat hodisalari bo'lishini bildirish. Bunda dengiz chayqaladi o'yini o'ynaladi. Guruh 4 ta guruhchaga bo'linadi. Har bir guruhga fasllar taqsimlab beriladi. Fasl rasmi ko'rsatilib, tabiat hodisasi nomi aytilsa shu guruh tarbiyachi yoniga keladi. Qolganlar esa joyida tinch turadi. "Klaster" organayzeridan foydalaniladi.

Yoz: jala, shudring, kamalak, yomg'ir, issiq kunlar.

Qish: sumalak-muz, qirov, qor.

Kuz: xazonrezgi, shamol, yomg'ir.

Bahor: yashil barglar, yomg'ir, bulutlar, ochiq havo, iliq kunlar.

II - bob yuzasidan xulosa

Bolalar bilan ishlaydigan xodim ota-onalariga bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhimligini tushuntirishlari kerak. Bunga turli ko'rgazmalar, san'at galereyasiga ekskursiyalar, yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni birgalikda ko'rib chiqishga qo'shma sayohatlar yordam beradi. Bola uchun har xil ijodiy doirani ziyorat qilish juda muhim, masalan: rasm; haykaltaroshlik; qo'shiq aytish. Bolalarni ijodiy jarayonda jalb qilish turli innovatsion usullar mavjud.

Bolalarga hayvonot olami haqidagi bilimlarni berish; hayvonlar, jonli tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish orqali ulardagi axloqiy sifatlarni tarbiyalash; hayvonot olami haqida tushuncha berish, ularni tasvirlash, hayvonot olamiga nisbatan ongli va axloqiy munosabatda bo'lishni tushuntirish. Jamoaviy guruh shaklida o'tkaziladigan ushbu sayirlarda bayon qilish, suhbat, savol-javob, "Klaster" organayzeridan foydalaniladi. Tarqatma material, hayvonlarning surati aks ettirilgan rasmlar kartochkalar mashg'ulotni tashkil etishdagi asosiy vositalar hisoblanib, tarbiyachi har bir bolaning faol ishtirokini kuzatib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar rivojlantiruvchi markazlardagi olib boriladigan faoliyatlar orqali bolalarga muvazaa oid savollar bilan murojaat qilish usullari orqali faollikka undab, e'tiborini, diqqatini jamlashga xizmat qiladi. Markazlardagi faoliyat so'ngida rag'batlantirish esa bolalarni kelgusi mashg'ulotlarga qiziqishini oshirishi tabiiy.

Sayirlarga tayyorlanish hamda-uni, o'tkazishda Sayirlarning tuzilishi uslubini tugri tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob'ektlarning xususiyatlari va bolalarning yoshiga boglikdir. Masalan yovvoyi hayvon haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilm ko'rsatish hayvonlar, o'simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul. Kichik yoshdagi bolalarning

III. Bob. Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning amaliy taxlili.

3.1 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha tajriba sinov ishlari.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrofni kuzatishga beriladigan bilimlar xilma-xil shakllarda: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladigan rivojlantiruvchi beshta faoliyat markazlarida, ekskursiyada, kundalik hayotda amalga oshiriladi.

Tabiat bilan tanishtirish jarayonida beriladigan bilimlar bolalarning imkoniyatlari hamda o'rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil rivojlantirish imkonini beradi. Mashg'ulotlarni ta'limiy ahamiyati bu bolalarga Mashg'ulotlarda berilishi yoki aniqlanishi hamda umumlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hajmi, bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi, nutqini o'stiruvchi, qiziqishlarini o'stiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bo'lmog'i lozim. Tarbiyaviy ahamiyati esa bolalarda kattalarga hurmat, Vatanga, o'z o'lkasi tabiatiga mexr - muhabbat tabiatni avaylab – asrash, tabiat bergan ne'matlardan o'z o'rnida unumli foydalanish kabi hislatlar tarbiyalanadi.

Sayirlardar ularni aniqlash, tizimga solish imkonini beradi. Bolalarni Mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Uslub Sayirlarning turiga, uning maqsadiga ko'ra aniqlanadi. Ayrim Mashg'ulotlarda boshlangich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rsatish, badiiy asarlarni o'qish, diafilm, kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa Mashg'ulotlarda esa bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi, chuqurlashtiriladi. Yuqorida keltirilgan usullardan tashkari mazkur Sayirlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Sayirlarning yana bir muhim vazifasi - bolalar bilimini umumlashtirish tizimga solish.

Mashg'ulotlarida kuzatish o'yin uslub idan foydalanib amalga oshiriladi. Og'zaki uslubdan asosan maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan buladigan mashg'ulotlarda foydalaniladi. Tanlangan uslub dastur vazifasining to'lik, bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatlarini ta'minlashi lozim sayirlar o'tkazishga tayyorlanar ekan tarbiyachi ishlash uchun qanday ko'rgazmali qurollar rasmlar, gerbariylar, tabiat kalendari va hokazolarni tanlashi kerak.

Qanday o'simlik yosh hayvonni parvarish qilish, ekiladigan ekinning nimaga kerak bo'lishini ko'radi. Shundan keyingina u sayirlarning borishi ustida fikr yuritadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga sayrdan keng foydalaniladi. Sayr vaqtida tasavvurlarni shakllanishi uchun uzoq, muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Tabiat hodisalarini kundalik kuzatishlar tasodifiy bo'lmasligi lozim, Bularni tarbiyachi oldidan rejalashtirishi lozim. Sayr vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni Mashg'ulot maqsadiga ko'ra uyushtiriladi. Katta guruhlarda bir necha kun, ba'zan haftalab davom etadigan hodisalarni kuzatish mumkin. Bu kuzatishni uzoq, muddatli kuzatish deyiladi. Sayrlarda ob-havonni, osmonni, usimliklar gullarni, xazonrezlik. hayvonlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu turdagi kuzatishlar uzoq muddatli kuzatishlar deyiladi. Katta, tayyorlov guruxdarining bolalari sayrdagi kuzatishlarini tabiat kalendarda aks ettiradilar. Ular bu kalendarda jonsiz tabiat, hayvonlar. o'simli. hayotidagi yorokin mavsumiy uzgarishlarni, kishilarning mehnatlarini aks ettiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish jarayonida bolalarni tevarak – atrofdagi voqea hodisalarni ko'rib bilish va fikrlashini rivojlantirishning hozirgi ahvoli bilan tanishib chiqildi. Bu jarayonda rasimlarni kuzatish, bolalar bilan suhbatlashish, anketa savolnomalari, test sinovlari tahlili asosida amalga oshirildi.

Dalillar yig'ish davomida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali nutqini rivojlantirishni amalga oshirish va o'tkazishda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlab olish va hal qilish bo'yicha bolalarni fikrlari va istaklari o'rganildi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak – atrof bilan tanishtirish orqali nutqini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, metod, shakl va vositalarini aniqlandi;

-tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodik jihatdan takomillashtirishga oid tavsiyalar yaratildi;

Tajriba – sinov ishlarining ikkinchi – izlanuvchi bosqichida quyidagilar amalga oshirildi:

Bolalar uchun savollar:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak – atrof bilan tanishtirish orqali nutqini rivojlantirishga oid topshiriqlar berildi.

Masalan:

1. Bolalarga siz kapalakka aylanib qoldingiz. O'zingizni hislaringizni tasvirlab bering. (empatiya metodi)
2. Tabiatda mavjud bo'lmagan hayratlanarli (kulguli) hasharot rasmini chizing: unda turli hasharotlarning organlari aks etsin (Dalillar metodi).
3. Qanday o'ylaysiz, barcha hasharotlar yo'q bo'lib ketsa nima sodir bo'ladi? (Tashhislash metodi)
4. Akulalarning harakatlariga reklama o'ylab toping. (ko'rgazmali-kuzatish metodi).
5. Tasavvur qiling siz qurbaqasiz. O'zingizni quruqlikda va suvda qanday his qilasiz?
6. Qayer sizga ko'proq yoqadi? Nima uchun? (Empatiya - tasavvur metodi)

– tajriba – sinov o'tkaziladigan tajriba va nazorat guruhlarini tanlab olindi;

Tajriba guruhida

- maktabgacha yoshdagi bolalarga tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar to'g'risida tushuncha berildi;

- izlanuvchi sinov natijalari tahlili, sinovda qatnashgan pedagog va bolalarlar bildirgan istaklari asosida tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid topshiriqlardan foydalanish metodikasi muayyan darajada takomillashtirildi.

Tadqiqot ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim

ahamiyatga ega. Shu sababli tarbiyachilarini maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishda tajriba-sinov ishlari samarali va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur asosida tashkil etilishi esa ularning muvaffaqiyatli va samarali yakunlanishini kafolatlaydi. Mazkur fikrga tayangan holda tadqiqotni olib borish davrida dastlab «Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish» nomli maxsus dasturning ishlab chiqilishi nazarda tutildi.

Manbalarda qayd etilishicha, tajriba-sinov dasturini tayyorlashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

1. Taklif qilinayotgan yangilikning dolzarbligini asoslash.
2. Tajriba-sinov obyektini aniqlash.
3. Tajriba-sinov maqsadini belgilash.
4. Tajriba-sinovni o'tkazish metodikasini va metodlarini belgilab olish.
5. Tajriba-sinov muddati va bosqichlarini belgilash.
6. Kutilayotgan natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Dastlab tajriba-sinov ishlarining maqsadi, asosiy bosqichlari, ularda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar aniqlab olinib, kutiladigan natijalar bashoratlandi. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrofni kuzatishga o'rgatishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish orqali tarbiyachilarni zarur bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat qilib belgilandi.

Amaliy faoliyat jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish yuqorida qayd etilgan maqsadga erishish imkonini beradi, degan xulosaga kelindi:

- 1) Tarbiyachilar o'rtasida anketa so'rovini tashkil etish asosida ularning maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy va amaliy bilimlarga egaliklarining mavjud darajasini o'rganish;
- 2) Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish, bu jarayonda alohida faollik ko'rsatish orqali tarbiyalanuvchilarga yordam berishga doir xohish-istak va rag'batni yuzaga keltirish;

- 4) Tarbiyachilari o'rtasida pedagogik faoliyat va uni samarali tashkil etishga doir nazariy bilimlarni targ'ib qilish;
- 5) Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- 6) Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish borasidagi bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni yanada boyitish maqsadida ular uchun maxsus tavsiyanomalarni tayyorlash.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi va har bir bosqichda muayyan ishlar bajarildi.

Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari va ularda
amalga oshirilgan vazifalar.

№	Bosqichlar	Amalga oshirilgan vazifalar
1.	Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi	1. Tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari belgilandi. 2. Tajriba-sinov maydonlari belgilandi. 3. Tarbiyachilar orasidan tajriba-sinov ishlariga jalb etiluvchilar tanlandi va ular tasodifiy tanlov yo'li bilan tajriba hamda nazorat guruhlariga birlashtirildilar. 3. Anketa so'rovlarini tashkil etish asosida tarbiyachilarning pedagogik faoliyat asoslaridan xabardorlik darajasi o'rganildi. 4. Tajriba guruhlarida qo'llash uchun maxsus dastur va dasturning maqbullik darajasi o'rganildi
2.	Asosiy bosqich	1. Maxsus dastur tajriba guruhlarida amaliyotga tatbiq etildi. 2. Vaqti-vaqti bilan dasturning samaradorligi tahlil qilib borildi. 3. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid metodik tavsiyalar ishlab

		chiqilib, mazkur tavsiyalar ham tajriba sinovidan o'tkazildi. 4. Zarur o'rinlarda dastur mazmuniga o'zgartirishlar kiritildi
3.	Yakuniy bosqich	1. Anketa so'rovlarini qayta tashkil etish orqali tajriba va nazorat guruhlarida ro'y bergan o'zgarishlar, shuningdek, metodik tavsiyalarning samaradorligi o'rganildi. 2. Tajriba hamda nazorat guruhlarida qo'lga kiritilgan natijalar umumlashtirildi va yakuniy xulosalarga kelindi

Mazkur vazifalarning bajarishga qaratilgan tadqiqotchilik faoliyati quyidagi yo'nalishlarda tashkil etildi:

- 1) Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid amaliy bilimlarni targ'ib etib borish;
- 2) Maxsus dastur asosida maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilishini ta'minlaydigan mashg'ulotlar tashkil etish;
- 3) Tarbiyachilarga individual, guruhli va ommaviy topshiriqlarni berish orqali ular tomonidan maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid ilg'or tajribalarning o'rganilishini yo'lga qo'yish, shuningdek, ularning shaxsiy tajribalarini boyitish.

Tadqiqot davrida amalga oshirilgan muhim ishlardan biri tajriba-sinov ishlariga tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni jalb qilish va ularni o'ziga biriktirgan tajriba hamda nazorat guruhlarini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Tajriba sinovi uchun taqdim etilgan maxsus metodika quyidagi metodlar asosida shakllantirildi:

I. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid anketa so'rovi. Anketa so'rovini tashkil etishda tevarak-atrof

kuzatishga tayyorlash yo'lida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar va ularning ta'lim samaradorligini ta'minlashga ta'sirini o'rganish maqsadi ko'zlandi. Tajriba davrida mavjud holatni imkon qadar obyektiv baholash maqsadida ochiq anketa so'rovlaridan foydalanildi. Anketa savollariga qaytarilgan javoblar quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi: ijobiy; qoniqarli; salbiy.

II. Suhbat, savol-javoblar uchun ishlanmalar ta'lim tajribasi anketa so'rovlarini suhbat, savol-javob hamda intervyu metodlari bilan birga qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlagan, zero, so'rovlar davrida yozma javobda fikrlarning to'la ifodalay olmaslik holatlari uchraydi; bu holatni bartaraf etish va tarbiyachilarning o'z fikrlarini batafsil ifodalash imkoniyatini yaratish uchun suhbatlar ham tashkil etiladi; suhbatlar avvaldan tayyorlangan savollar asosida tashkil etilganligi sababli, savollarning puxta o'ylanganligi, aynan o'rganilayotgan muammo mohiyatini yoritishga yo'naltirilganligi, aniq, qisqa va fikrni tugal ifodalay olishi alohida ahamiyatga egadir.

Tajriba davrida tashkil etilgan suhbatlar uchun quyidagi savollar tanlandi:

1. "Tevarak-atrof kuzatish" tushunchasi siz uchun qanday ma'noni anglatadi?

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi sayrlar, ekskursiyalar va ular bo'yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish shartlari to'g'risida yetarli ma'lumotga egamisiz?

3. Tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, mazmuni to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarni qanday manbalar orqali o'zlashtirasiz?

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tevarak-atrof kuzatishni tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirishga e'tibor qaratasizmi?

6. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy va amaliy bilimlaringizni yetarli deb baholay olasizmi?

7. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy va amaliy bilimlaringizning mavjud darajasidan qoniqmasligingizning sababi nimada?

Tajriba davrida savol-javoblardan anketa so'rovlarini tashkil etish, suhbat uyushtirish, tarbiyachilarning amalga oshirilgan tadbirlar to'g'risidagi taasurotlarini o'rganish kabi vaziyatlarda samarali foydalanildi.

Intervyular esa tarbiyachilarning tajriba davrida tashkil etilgan mashg'ulotlarga munosabati, umuman kutilgan natijalarning qo'lga kiritilganlik holatini baholash maqsadida qo'llanildi va ular savollar asosida tashkil etildi:

Asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar ko'rsatkichlarini o'zaro qiyosiy o'rganish uchun ma'lum mezonlarni ishlab chiqish talab etiladi. Tadqiqotni olib borishda maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga yo'naltirilgan jarayon samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi **mezonlar** ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy bilimlarga egaliklari.

2. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishdagi amaliy ko'nikma va malakalarga egaliklari.

3. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga nisbatan ijodiy yondasha olishlari.

3.2 Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning tajriba-sinov natijalari.

Shakllantiruvchi tajriba davrida maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid maxsus metodikaning samaradorligi ko'zga tashlandi. Buni tajriba guruhi faolliklarining oshganligi hamda ularga bo'lgan intilishlarida ko'rish mumkin bo'ldi. Biroq, tavsiya etilgan maxsus metodikaning samaradorligi nazorat va tajriba guruhlari tarbiyalanuvchilarning faoliyatlarini o'zaro taqqoslash, ularning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini qiyosiy o'rganish asosidagina to'la tasdiqlanishi mumkin. Shu bois ta'kidlovchi, ya'ni so'nggi bosqich tajriba davrida mana shu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun har ikki guruhda asoslovchi tajriba chog'ida tarbiyachilar e'tiboriga havola etilgan anketa so'rovlari qayta o'tkazildi. So'rovlar chog'ida aniqlikka erishish maqsadida har ikki guruhda dastlabki tajriba davrida ishtirok etgan tarbiyachilarning ishtiroki ta'minlandi, son ko'rsatkichlarining mos kelishiga erishildi.

Mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishining tajriba-sinov ishlari DMTT olib borildi buning uchun biz tomonimizdan "Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish" mavzusi bo'yicha tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi (1-ilova). Unga ko'ra mavzuga doir 2 soatlik 4 ta mavzuga bo'lingan mashg'ulotlar shu guruxlarda olib boriladi.

Bunda 4 ta mavzuga doir mashg'ulotlar o'tkazildi.

Bayonnomadan ko'chirma № 1

Sana: 24.02.2021 y

Qatnashganlar soni : 26 nafar.

Mavzu: Jonli tabiat va jonsiz tabiat hodisalari xaqida suhbat

Maqsad: Katta guruh bolalarini jonsiz tabiat va jonsiz tabiat hodisalari xaqidagi bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.

Jihozlar :jonsiz tabiat jismlari va hodisalari aks ettirilgan rasmlar, rangli qalam,oq qog‘oz

Interfaol usullar: Aqliy hujum, klaster, ta’limiy o‘yin,rahbat kartochkalari.

Mashg‘ulotning borishi:

1-qism: Aqliy hujum usuli

Savollar:

- Jonsiz tabiat deganda nimani tushunasiz?
- Jonsiz tabiatga nimalar kiradi?
- Qanday jonsiz tabiat hodisalarini bilasiz?
- Jonsiz tabiatni jonli tabiatdan qanday qilib farqlash mumkin?

Bolalarni javoblar:

2-qism: Ta’limiy o‘yin “Jonsiz tabiatni farqini ajrat”

Tarbiyachi: Men hozir turli jonsiz tabiatga mansub bo‘lgan narsalarni aytaman ,sizlar esa ularni tug‘ri yoki noto‘griligini aytasizlar.

O‘yining borishi:

-Olma

Bolalar :Jonli tabiat

-Yomg‘ir

Bolalar : jonsiz

-Tosh

Bolalar :jonsiz

-Daraxt

Bolalar : Jonli

-Qor

Bolalar : jonsiz

-Quyosh

Bolalar : jonsiz

-Gul

Bolalar : Jonli

-Tog‘

Bolalar : jonsiz

-Shamol

Bolalar : jonsiz

-Qush

Bolalar : Jonli

-Tuproq

Bolalar : jonsiz

Tarbiyachi bolalar siz jonsiz tabiat haqida juda ko‘p ma’lumotga ega ekansizlar

Klaster usuli

Tarbiyachi: Hozir men doskaga oq qog‘ozni yopishtiraman, meni stolimni ustida jonli va jonsiz tabiatga mansub bo‘lgan narsalar aks ettirilgan rasmlar bor (qor,gul, qum, tosh,daraxt,mashina,yomg‘ir,samolyot, olma, tuproq,bulut, quyosh, kitob,chaqmoq,qalam,non,suv,havo...) har biringiz doskaga chiqib jonsiz tabiatga nima kirsa shu rasmni oq qog‘ozga yopishtirib chiqasizlar. Bolalar birin ketin doskaga chiqib qaysi rasmni jonsiz tabiatga mansub deb topsalar ,shuni yopishtirib chiqdilar.

Tarbiyachi mashg‘ulot so‘ngida faol ishtirok etgan bolalarga rag‘bat kartochkalarini berdi,kartochkalarda “Yulduzcha” aks ettirilgan bu bilimdon bola degan ma’noni anglatadi.

Bayonnomadan ko‘chirma № 2

Sana: 17.03.2021 y

Qatnashganlar soni :27 nafar.

Mavzu:Jonsiz tabiat hodisasi “Yomg‘ir”ning xususiyatlari bilan tainishish.

Maqsad:Katta guruh “Yomg‘ir”ning xususiyatlari haqida bilim berish.

Mashg‘ulotning borishi:

1-qism: Aqliy hujum usuli

Tarbiyachi : Bolalar oynadan hovliga qaranglarchi nima bo‘layapti?

Bolalar:Hovlida yomg‘ir yog‘ayapti.

Tarbiyachi :Yomg‘ir- bu nima?

Bolalar: Yomg‘ir- bu suv,u osmondan tushadi.

Tarbiyachi :Qaysi fasllarda ko‘proq yomg‘ir yog‘adi?

Bolalar: Yomg‘ir ko‘proq kuz va bahor oylarida yog‘adi.

Tarbiyachi :Kuz yomg‘iri qanday bo‘ladi?

Bolalar: Kuz yomg‘iri kup yog‘adi va u sovuq bo‘ladi

Tarbiyachi :Bahor yomg‘irichi?

Bolalar: Bahor yomg‘iri ILIQ BO‘LADI ,LEKIN BAHORDA YoMG‘IR

YoG‘AYoTGANDA ko‘p chaqmoq chaqib,momaqlldiroqlar bo‘ladi.

Tarbiyachi bolalarga Shukur Sa’dullaning “Yomg‘ir yog‘aloq” she’rini o‘qib berdi.

Yomg‘ir yog‘aloq,

Yam-yashil o‘tloq.

Endi ekinlar,

Chiqarar quloq

Tarnovdan oshib,

Tushadi shoshib.

So‘ng jilg‘alardan

Oqadi shoshib.

Ariqlar to‘lar,

Zo‘r anhor bo‘lar,

Suv serob bo‘lar,

Ko‘p paxta unar.

Yomg‘irdan foyda

Maysaga,donga

Yurt serob bo‘lar

Oq bug‘doy nonga

2-qism: Yomg‘ir yog‘ayotgani aks ettirilgan ijodiy rasm solish.

Bolalar o‘z hohishlari bo‘yicha rangli qalam yoki moybo‘yoqda rasm chizdilar .

Har bir bola o‘zi chizgan rasmini doskaga osib qo‘ydi va o‘z rasmda nimani aks ettirganini bolalarga so‘zlab berdi.

3-qism: Tarbiyachi bolalarga eng yaxshi chizilgan rasmni ajratishni taklif etdi, eng yaxshi chizilgan rasm mualliflari tarbiyachi tomonidan rag'batlantirildi.

Bayonnomadan ko'chirma: № 3

Sana: 14.04.2021

Qatnashganlar soni: 6 nafar

Mavzu: Tarbiyachilarning kasbiy shakllanishining tarkibiy tuzilishi.

Mavzudan ko'zlangan maqsad talabalarga kasbiy kamol topishda talabalarning psixologik individualligi va o'z- o'zini boshqarishning ilmiy asoslari xaqida bilimlar berishdir.

Seminar mashg'ulotining borishi:

Tadqiqotchi: Tarbiyachilarning kasbiy shakllanishi kasbiy ahamiyatli sifatlarning endigina tarkib topib kelayotganligi bilan tavsiflanadi. Kasbiy jixatdan ahamiyatli bo'lgan psixologik omillarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchining qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan sifatlarni ustida to'xtalib o'tamiz:

- motivasion omil;
- intellektual omil;
- irodaviy omil;
- emotsional omil;
- amaliy – predmetli omil (yangi axborotlarni topish, noan'anaviy echimlarni topish);
- ekzistensial omil (o'zini ijodkor induviduallik sifatida anglab etish, shaxsiy xarakterlarni amalga oshirishda va fikrlashda erkinlikning namoyon bo'lishi);
- o'z- o'zini boshqarish omili kabi omillardan iboratdir.

Savol: "Kasbiy kamol topishda talabalarning psixologik individualligi nimalarda namoyon bo'ladi?"

Javoblar:

- Pedagogikada pedagogik ijodkorlik dinamik xodisa, murakkab ochiq tizim xamda shaxsning xayotiy dasturi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyatning reproduktiv usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligi va xayotiy maqsadlarini ifodaetadi, shu bilan birga u o'zini sifat jixatidan o'zgartiradi, mavjud psixologik to'siqlarni engi

oladi, kasbiy jixatdan axamiyatli bo'lgan sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o'zining pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqadi.

- Individual farqlar amalda pedagogik faolitning deyarli barcha ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Individual farqlarning tarkib toipishi o'qituvchining pedagogik muxitga kirib kelishi, o'zini boshqa pedagoglar bilan qiyoslash jarayonida yuz beradigan xodisa sanaladi. Muayyan pedagogning ish faoliyati xamkasblari faoliyatidan ta'lim usullarini tanlash xamda ularni kombinasiyalash, bolalarga yondashuvi va yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari va yoki bo'lmasa yutuqlari bilan o'lchanadi.

Savol: "Inson o'z-o'zini boshqarishi deganda nimalarni tushunasiz?"

Javoblar: o'z o'zini boshqarish uch darajada namoyon bo'ladi: tezkor, avtonom, turg'un. Ularning barchasini kuchli va kuchsiz tomonlari xamda muvozanatlashgan jixatlari mavjud.

Tarbiyachilarning kichik guruxlarga bo'lib chiqib va quyidagi savollar bilan ishlashlarini e'lon qilindi:

- kasbiy tayyorgarlikni tashxis qilish va baxolash shartlari;
- kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashda ishtirok etuvchi mezonlarni;
- **tarbiyachilarni** kasbiy shakllanishning shaxs shakllanishidagi o'rni va axamiyati.

Xar bir guruxlarga vatman va tarqatma materilallar tarqatib chiqilib, ularning ishlashlariga 15 daqiqa vaqt berildi. Ishlash jarayonida turli texnologiyailarni qo'llashlari kerakligi aytib o'tildi.

Natijalar o'qib eshittirilib muxokama qilinadi.

Yuqoridagi o'ziga xos xususiyat va omillarni nazarda tutib maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqaliy nutqini o'stirishni amalga oshirish holatini kuzatib o'rganib tahlil etdik.

Tadqiqot o'tkazish metodikasi

Tadqiqot ishi 3 bosqichda olib borildi.

1. Aniqllovchi tajriba-sinov ishlari

Bu bosqichda ish 2 yo'nalishda olib borildi:

A) nazariy tahhlil:

Bunda mutafakkir va ma'rifatparvarlar, pedagoglar, psixologlar asarlari o'rganildi va tahlil qilindi.

B) amaliyotni o'rganish:

Bunda pedagogik jarayon kuzatildi, tarbiyachilar bilan va bolalar bilan so'rovnoma o'tkazildi.

2. Shakllantiruvchi (bilim beruvchi) tajriba-sinov ishlari.

Bu bosqichda maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida suhbatlar o'tkazildi.

3. Solishtiruvchi tajriba-sinov ishlari. Bu bosqichda tarbiyachi va bolalarni shakllantiruvchi tajribagacha va undan keyingi bilim darajalari bir-biriga solishtirilib tahlil qilindi.

Tadqiq etilayotgan muammoni amaliyotdagi holatini aniqlash maqsadida aniqlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Toshkent shahar Chilanzor tumanidagi 366-sonli hamda 474-sonli Maktabgacha ta'lim tashkilotida tadqiqot ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishida 12 ta tarbiyachi, 106 ta bolalar ishtirok etishdi.

Aniqlovchi tajriba 2021 yilning mart-aprel oylarida olib borildi. Aniqlovchi tajribaning maqsadi: «Tevarak - atrof bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish».

Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi materiallar tayyorlandi:

1. Pedagogik jarayonni kuzatish sxemasi.
2. Tarbiyachilar uchun so'rovnoma.
3. Bolalar uchun so'rovnoma.

Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni halq og'zaki namunalari orqali hikoya qilishga o'rgatish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan. Tarbiyachilar bu yo'nalishda ish olib borishga qiynaldilar. Chunki ular uchun yetarli darajada metodik qo'llanmalar mavjud emas. Shuning uchun tadqiq etilayotgan muammoni amaliyotdagi holatini o'rganish va oilada bolalarni halq og'zaki ijodi namunalari orqali hikoya qilish tizimini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Tarbiyachilar uchun so'rovnoma.

1. Sayirlardan nimalarni kutgan edingiz?
2. Sayirlarning tashkil etilishi va o'tkazilishidan qoniqish hosil qilindingizmi?
3. Sizning fikringizcha, Markazlardagi faoliyat qay darajada samarali tashkil etildi (sayirlarning amaliy aamiyatini shaxsiy fikrlaringiz asosida ochib bering)?
4. Sizningcha, mashg'ulotni tashkil etilishida qanday kamchilik ko'zga tashlandi?
5. Sayirlarning yanada samarali kechishi uchun Siz nimalarga e'tibor qaratgan bo'lar edingiz?

Bu bosqichda ham dastlab tarbiyachilar anketa so'roviga javob berdilar. Javoblar natijalari quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topdi.

1-jadval

Tarbiyachilarning anketa so'rovi bo'yicha javob ko'rsatkichlari
(ta'kidlovchi tajriba)

Savollar tartibi	Tajriba-sinov guruhleri $n_1 = 8$ nafar			Nazorat guruhleri $n_2 = 12$ nafar		
	Ijobiy	Qoniqarli	Salbiy	Ijobiy	Qoniqarli	Salbiy
	Foiz hisobida					
1-savol	37,8	43,9	18,2	23	50,7	26,3
2-savol	36,5	49,3	14,2	26,3	44,1	29,6
3-savol	34,5	50	15,5	20,9	48	31,6
4-savol	27	48	25	15,8	44,7	39,5
5-savol	33,1	52,7	14,2	22,4	44,1	33,6

Asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba davrida tarbiyachilarning anketa so'rovi bo'yicha qaytargan javoblari ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni aniq ifodalash maqsadida quyidagi jadvallar hosil qilindi.

2-jadval

**Tajriba guruhi tarbiyachilarining anketa so'rovi
bo'yicha javob ko'rsatkichlari
(asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar)**

Savollar tartibi	Jami tarbiyachilar soni (n_1) = 12 nafar					
	Asoslovchi tajriba			Ta'kidlovchi tajriba		
	Ijobiy	Qoniqarli	Salbiy	Ijobiy	Qoniqarli	Salbiy
1-savol	21,6	46,6	31,7	37,8	43,9	18,2
2-savol	20,2	45,2	34,5	36,5	49,3	14,2
3-savol	18,2	45,9	35,8	34,5	50	15,5
4-savol	10,8	43,9	45,2	27	48	25
5-savol	16,9	48,6	34,4	33,1	52,7	14,2

3-jadval

Nazorat guruhi tarbiyachilarining anketa so'rovi

bo'yicha javob ko'rsatkichlari (asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar)

Savollar tartibi	Jami tarbiyachilar soni (n_1) = 12 nafar					
	Asoslovchi tajriba			Ta'kidlovchi tajriba		
	Ijobiy	Qoniqarli	Salbiy	Ijobiy	Qoniqarli	Salbiy
1-savol	19	52	29	23	50,7	26,3
2-savol	22,4	45,4	32,2	26,3	44,1	29,6
3-savol	16,4	49,3	34,2	20,9	48	31,6
4-savol	11,8	46,1	42,1	15,8	44,7	39,5
5-savol	18,4	45,4	36,2	22,4	44,1	33,5

Tarbiyachilarning anketa so'roviga javoblari mazmun nuqtai nazardan o'rganilganda tajriba guruhlarining tarbiyachilari tomonidan ijobiy javoblar qaytarilganligi, nazorat guruhlarida esa asoslovchi tajribadagi kabi javoblar qaytarilganligi ma'lum bo'ldi.

Tarbiyachilarni so'rovnoma bergan javoblarini sifat jihatdan tahlili shuni ko'rsatdiki:

Tarbiyachilardan birinchi savolga Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish uchun nimalarga ahamiyat berish lozim? 8 tasi (73,7%) to'g'ri javob, 4tasi (26,3) noto'g'ri javob bergan;

Ikkinchi savolga Tevarak-atrofni kuzatish jarayoni qanday tashkillashtiriladi? 7 tasi (70,4%) to'g'ri, 5 tasi (29,6%) noto'g'ri javob bergan.

Uchinchi savolga «Tevarak-atrofni kuzatish yanada samarali kechishi uchun siz nimalarga e'tibor qaratgan bo'lar edingiz?» 5 tasi (68,9%) to'g'ri javob, 7 tasi (31,6%) noto'g'ri javob bergan.


To'rtinchi savolga Tevarak-atrofni bilishda bolalar nutqini rivojlantirishga yaqindan yordam beradigan qanday metodikalarni bilasiz? 7 tasi (60,5%) to'g'ri javob, 5 tasi (39,5%) noto'g'ri javob bergan.

Beshinchi savolga Bolalarni lug'at boyligini faollashtirish uchun mavzu rejasiga qanday mavzularni kiritish maqsadga muvofiq? 6 tasi (66,5%) to'g'ri, 3 tasi (33,5%) noto'g'ri javob bergan.

Tarbiyachilarni so'rovnoma bergan javoblari shuni ko'rsatadiki, ular, bolalar nutqini o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish haqida aniq bilimlarga egadirlar. Respondentlarning anketa so'roviga javoblari mazmun nuqtai nazardan o'rganilganda tajriba guruhlarining tarbiyachilari tomonidan ijobiy javoblar qaytarilganligi, nazorat guruhlarida esa asoslovchi tajribadagi kabi javoblar qaytarilganligi ma'lum bo'ldi.


1-2-3 jadval bo'yicha olib borilgan taqiqot natijalarini taxlilini 2 guruhga ajaratilgan xolda berilgan savollarni umumiy javoblarini ijobiy va qoniqarli javoblarini o'zlashtirish ko'rsatkichi sifatida tavsiflab, salbiy berilgan javoblar o'zlashtirilmadi degan xulosa asosida qo'yidagi diagrammalarni tuzamiz.

Tarbiyachilarning anketa so'rovi bo'yicha javob ko'rsatkichlari (ta'kidlovchi tajriba)




Tajriba guruhining nazorat guruxlariga nisbatan o'zlashtirish samaradorligi umumiy natijalarga ko'ra 1,21 barobarga ya'ni 21% ga yuqori ekanligi kuzatildi

Tajriba guruhi tarbiyachilarining anketa so'rovi bo'yicha javob ko'rsatkichlari



Tajriba guruhining ta'kidlovchi tajriba natijalari asoslovchi tajriba natijalariga nisbatan o'zlashtirish samaradorligi umumiy natijalarga ko'ra 1,30 barobarga ya'ni 30% ga yuqori ekanligi kuzatildi

Nazorat guruhi tarbiyachilarining anketa so'rovi bo'yicha javob ko'rsatkichlari



Nazorat guruhining ta'kidlovchi tajriba natijalari asoslovchi tajriba natijalariga nisbatan o'zlashtirish samaradorligi umumiy natijalarga ko'ra 1,04 barobarga ya'ni 4% ga yuqori ekanligi kuzatildi

Maktabgacha ta'lim muassasalardan 106 nafar bog'cha bolalar olinib, ular tajriba va nazorat guruhiga ajratildi va ularda xam tarbiyalanuvchilar singari asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba sinov ishlari o'tkazildi.

Kuyidagi jadvallarda tajriba va nazorat guruhlari tarbiyalanuvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari keltirildi


4-jadval

Tajriba va nazorat guruhlari asoslovchi tajriba bosqichidagi natijalari

MTT		336- MTT		473 MTT		Jami	
Guruhlar		tajriba guruhi	Nazorat guruhi	tajriba guruhi	Nazorat guruhi	tajriba guruhi	Nazorat guruhi
	bolalar soni	26	25	27	28	53	53
yuqori	5	1	1	0	1	1	2
	foizda	3,8%	4,0%	0,0%	3,6%	1,9%	3,8%
o'rta	4	5	5	7	5	12	10
	foizda	19,2%	20,0%	25,9%	17,9%	22,6%	18,9%
past	3	20	19	20	22	40	41

	foizda	76,9%	76,0%	74,1%	78,6%	75,5%	77,4%
o'rtacha qiymat		3,27	3,28	3,26	3,25	3,26	3,26
o'rtacha qiymat % hisobida		65,4%	65,6%	65,2%	65,0%	65,3%	65,3%
Samaradorlik		1,00		1,00		1,00	

Bu natijalarga ko'ra diagramma ko'rinishi quyidagicha




Jadval va diagramma natijalariga ko'ra tajriba sinov ishlarining asoslovchi bosqichida samaradorlik mavjud emas.

5-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarining ta'kidlovchi tajriba bosqichidagi natijalari

MTT		336- MTT		473 MTT		Jami	
Guruhlar		tajriba guruhi	Nazorat guruhi	tajriba guruhi	Nazorat guruhi	tajriba guruhi	Nazorat guruhi
	bolalar soni	26	25	27	28	53	53
yuqori	5	5	1	5	2	10	3
	foizda	19,2%	4,0%	18,5%	7,1%	18,9%	5,7%
o'rta	4	13	6	13	6	26	12
	foizda	50,0%	24,0%	48,1%	21,4%	49,1%	22,6%
past	3	8	18	9	20	17	38
	foizda	30,8%	72,0%	33,3%	71,4%	32,1%	71,7%
o'rtacha qiymat		3,88	3,32	3,85	3,36	3,87	3,34
o'rtacha qiymat % hisobida		77,7%	66,4%	77,0%	67,1%	77,4%	66,8%
Samaradorlik		1,17		1,15		1,16	

Bu natijalarga ko'ra diagramma ko'rinishi quyidagicha



Jadval va diagramma natijalariga ko'ra tajriba sinov ishlarining asoslovchi bosqichida samaradorlik mavjud bo'lib ularning samaradorligi 16% ni tashkil etadi

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Manbalarni o'rganish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan tanishish maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish dolzarb muammolardan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli tarbiyachilarini maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrofni kuzatishga o'rgatishda tajriba-sinov ishlari samarali va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining texnologik yondashuv asosida tashkil etilganligi kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratdi. Dastlab tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalarining aniqlanishi, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrofni kuzatishga o'rgatishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda boyitishga yordam beruvchi maxsus metodikaning shakllantirilganligi mazkur jarayonning samarali tashkil etilishini kafolatladi. Tajriba-sinov ishlarini muayyan tartibda va dastur asosida tashkil etilishi ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minladi. Amaliyot uchun tavsiya etilayotgan maxsus metodika maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishda ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga imkon berdi. Tadqiqot negizida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi metodikaga asoslandi: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy bilimlari darajasini o'rganuvchi anketa so'rovi;

Yakuniy tajriba bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida sinovgacha va sinovdan keyin olingan natijalarning tahlili kutilgan natijaga erishganlikni tasdiqladi. Ya'ni tajriba guruhlarining ishtirokchilari maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari darajasi sezilarli darajada o'sdi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tevarak-atrof bilan tanishtirish bolalarda tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatini oshiradi, estetik qarashlarini

rivojlantiradi, mustaqil fikrlash, kattalar mehnatini e'zozlash, atrof-olamni toza, ozoda saqlashga o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan tevarak-atrof bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tevarak-atrofga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Manbalarni o'rganish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan tanishish maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatish dolzarb muammolardan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli tarbiyachilarini maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishda tajriba-sinov ishlari samarali va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak - atrof kuzatishga o'rgatish borasida muayyan tajribalar to'planganligiga qaramay, ayrim kamchiliklar ham mavjudligini tasdiqladi.

Tarbiyachilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning mustaqil ta'lim olish va ijodkorlik ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlariga e'tibor qaratish talab etiladi. Shakllantiruvchi tajriba davrida maktabgacha yodagi bolalarni tevarak-atroftni kuzatishga o'rgatishga oid maxsus metodikaning samaradorligi ko'zga tashlandi. Buni tajriba guruhi faolliklarining oshganligi hamda ularga bo'lgan intilishlarida ko'rish mumkin bo'ldi. Pedagog va tarbiyachilar ushbu faoliyat turini tanlashda bolani yoshi, individual xususiyatini hisobga olib, barcha qoidalarga to'liq amal qilgan holda, atrof-olam bilan tanishtirishdan oldin, kerakli jihozlar, tarqatma materiallar, sayr vaqtida ehtiyot choralarga amal qilgan qilgan holda o'tishlari maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi fikr-mulonazalardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar berildi:

1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tevarak-atrofkuzatishga o'rgatishning yetakchi shakli sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
2. Tadqiqotni olib borish davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida turli ta'lim-tarbiya turlaridan foydalanish samarali ekanligi ma'lum bo'ldi.
3. Tarbiyachilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning mustaqil ta'lim olish va ijodkorlik ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlariga e'tibor qaratish talab etiladi..
4. Tarbiyachi bolalarni tevarak - atrof bilan tanishtirishda tabiatdagi turli xil tabiat hodisalari, ko'rgazmalilik uslublar bilan tanishtirib borish kerak.
5. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'ri o'sib shakllanishida, tevarak - atrofda bo'ladigan voqea va hodisalarning sirasrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.
6. Tevarak - atrofga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tevarak - atrof yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'alariga hurmat ruhida tarbiyalab borish.

TAYANCH SO'ZLAR

№	Ўзбек тилида	Рус тилида	Инглиз тилида
1	Мактабгача	Дошкольный	Preschool
2	Таълим	Образование	Formation
3	Анъаналар	Традиция	Tradition
4	Ахлоқ	Нравственность	Morality
5	Эрталик	Утренник	Utrennik
6	Байрам	Праздник	Holiday

7	Урф-одат	Обычай и привычки	Custom and habits
8	Эстетика	Эстетика	Aesthetics
9	Дид	Вкус	Taste
10	Жараён	Процесс	Process
11	Педагогик	Педагогический	Pedagogical
12	Психологик	Психологический	Psychological
13	Қадриятлар	Ценности	Value
14	Болалар	Дети	Children
15	Асос	Основа	Base
16	Тадқиқот	Исследование	Study
17	Мақсад	Цель	Purpose
18	Тарих	История	History
19	Ёндашув	Подход	Approach
20	Ривожлантириш	Развивать	to Develop
21	Жихоз	Оборудование	Equipment
22	Тизим	Связь	a Relationship
23	Мазмун	Содержание	Contents
24	Шакл	Форма	Form
25	Усул	Способ	Way
26	Амалиёт	Деятельность	Activity
27	Нарўз	день Нового года	Day of the New year
28	Метод	Метод	Method
29	Адабиёт	Литература	Literature
30	Ғоя	Идея	Idea
31	Восита	Средство	Facility
32	Кузатув	Наблюдать	Observe
33	Зиёрат	Паломничество	Pilgrimage
34	Натижа	Результат	Result
35	Хулоса	Вывод	Conclusion
36	Маънавият	Духовность	Duhovnosti
37	Ўйин	Игра	Play
38	Тавсия	Рекомендация	Recommendation
39	Тарбиячи	Воспитатель	Vospitateli
40	Миллий	Национальный	National
41	Инсон	Человек	Persons
42	Азалий	Древний	Ancient
43	Маориф	Образование	Formation
44	Асар	Произведение	Product
45	Олим	Учённый	Taught

46	Тарбия	Воспитание	Education
47	Қарашлар	Взгляды	Glances
48	Асосчи	Основатель	Founder
49	Қадимий	Древний	Ancient
50	Узлуксиз	Беспрерывный	Continuous
51	Уйғунлик	Соответствие	Correspondence to
52	Англаш	Означать	Mean
53	Мустақиллик	Независимость	Independence
54	Буюк	Великий	Great
55	Неъмат	Благо	Good
56	Холис	Беспристрастный	Impartial
57	Талқин	Интерпретация	Interpretation
58	Тушуниш	Понимать	Understand
59	Ўзлаштириш	Осваивать	Master
60	Таъсир	Влияние	Influence

I. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’limni tubdan takomilllashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori”dan
- 2.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari -T.: 2018y. 3-iyul.
3. Islom Karimov Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch.- T.: “Ma’naviyat” 2008.
- 4.”2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9-sentyabrdagi PQ-3261 sonli Qarori.

- 5.”2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishining beshta ustuvor yo‘nalishi Harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmon.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 30-dekabr, 2016
7. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoevning Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.-T.; 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son.
- 8.Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. –T.: 2020y.23.12,802-son.
9. ” Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoni.
- 10 “Ilk qadam” davlat dasturi. –T., 2018.
11. Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi. –T., 2019.

II. Asosiy adabiyotlar:

- 12.Arushanova A.G. Razvitie rechi doshkolnika (grammatika). Metodicheskoe posobie dlya vospitateley. -M., 1997.
13. Anna Freyd. Detskiy psixoanaliz. –SPb.: Piter, 2003.
14. Asqarova M. va bosh. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish.–T., 2001.
15. Abduazimov O.. Multimedia – noyob ne‘mat / «Xalq so‘zi» gazetasi, 2002, 28-fevral.
16. Begmatova N.X., M.Aripov. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. – T., 2012.
17. Begmatova O.A.va boshq. Quvnoq harflar. –T.: O‘qituvchi, 2000.
18. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi–T.,”Barkamol fayz mediya” 2018.
19. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi–T., TDPU, 2017.
20. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi–T., “Fan va texnologiya”, 2009
- 21.Vaxobova N, Rasulova M.Sh. va boshq. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. –T., 2008.

22. Gerbova V. Planirovanie raboty po razvitiyu rechi i oznakomleniyu s xudojestvennoy literaturoy // Doshkolnoe vospitanie. 1999. №3.
23. Jalolova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish. –T., 2004.
24. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. –T., 1996.
25. Ismailova R. Idrok jarayoni – yetakchi omil: 6-7 yoshli bolalarga tarbiya // Boshlang'ich ta'lim. 1999. №3. 36-37 b.
26. Ismoilova M. Noan'anaviy ish uslublari orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish yo'llarini axtaryapmiz: Tajriba minbari // Maktabgacha tarbiya. 1992. №2. 44-46 b.
27. Kadirova R.M. Teoriya i metodika razvitiya rechi (Tekst leksiy). –T.: UzPFITI, 2000.
24. Kadirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni o'stirishning omillari (O'quv qo'llanma). –T.: TDPU, 2002.
28. Lyublinskaya A.A. Tarbiyagacha bolalarning rivojlanishi haqida. –T.: O'qituvchi, 1997. -279 b.
29. Mo'minova L.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. –T., 1996.
30. Mirjalilova S., To'laganova. R. Talim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyonoma. –T., 2008.
31. Nutq o'stirish (Bolalar bog'chalari uchun she'r va topishmoqlar to'plami). – T., 2013.
32. Nurkeldiyeva D.A. va boshq. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. –T., 2007.
33. Ochilov M. O'qitish usuli – pedagogik texnologiyalarning asosiy komponenti // Xalqta'limi. 1999. №6. -32-35 b.
34. Podlasıy V.I. 100 savolga 100 javob. -M.: 2004.
35. Podlasıy I.P. Pedagogika: Novıy kurs: Uchebnik dlya studentov vıssh. ucheb. zaved : V 2 kn. – M.: Vlos, 2007.
36. Psixologiya. // Pod red. Ye.I. Rogova. Uchebnoe posobie dlya studentov VUZa. –M.: Vlos, 2005.

- 37.Safarova R. va boshq. Savod o'rgatish darslari. –T.: Ma'naviyat, 2003.
- 38.Tolipov O'. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar // Xalqta'limi.1999.№2-3. -63-68 b.
- 39.Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. Metodik tavsiyalar. –T.: Nur-sehri Oshiyoni, 2007. -67 b.
- 40.Fayzullaeva M., Raximova Z., M.Rustamova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish (Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi). –T., 2010.
- 41.Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 2006.
42. Shodiyeva Q. O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish. –T.: O'qituvchi, 2008.
- 43.Qodirova F.R., Kadirova R.M.. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. –T.: Istiqlol, 2006.
- 44.Edited by Mary Rafferty. Abrief review of approaches to oral language developme nt. –USA: 2014.

III. Qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati:

45. Alyamovskaya V.G. O'zgaruvchan maktabgacha ta'lim rejalarini ishlab chiqish. // Maktabgacha ta'lim tashkilotsini boshqarish. 2002. № 6, s. 25-35
46. Belaya K.Yu. DOE qo'llanmasi: Nazorat-dagnostika funktsiyasi. M .: 2004.- 64 b.
47. Belaya K.Yu. Maktabgacha ta'lim tashkilotsi ishini yil yakunlari bo'yicha rejalashtirish. // Maktabgacha ta'lim tashkilotsini boshqarish. 2002. № 3
48. Versxinina N.B., Suxanova T.I. Bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga zamonaviy yondashuvlar. Ma'lumotnoma va uslubiy materiallar. - "O'qituvchi" nashriyoti, 2010 - 111 b.
49. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini sifatini boshqarish. - M .: Iris-didaktik, 2007.-192 b.
50. Denyakina L.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishdagi yangi yondashuvlar. M .: Yangi maktab, 2008 .-- 96 b.

51. Emtseva T.A. Bolalar bog'chasidagi psixologik-tibbiy-pedagogik ishlar: rejalashtirish, tavsiyalar, diagnostika materiallari. M. O'qituvchi, 2010.-141 b.
52. Kazakova I.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yillik rejalashtirish: qiyinchiliklar, xatolar, bartaraf etish usullari. - M.: TC Sphere, 2005 - 64 b.
53. Korepanova M.V., Lipchanskaya I.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati va rivojlanishini monitoring qilish. - M.: Sfera ijodiy markazi, 2005.- 80 b.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTERNET. Ped.](http://tdpu-INTERNET.Ped)

ILOVALAR

1-ilova

«Bo'lsang ahil, bo'lmaysan baxil» maqoli yuzasidan suhbat

Maqsad: Bolalarning o'rtoqlik, do'stlik, mehribonlik haqidagi insonparvarlik fazilatlarini: ahillik, mehribonlik, g'amho'rlikni tushunchalarini aniqlash. Maqol mazmunini rasmlar orqali izohlash. Bolalarda tarbiyalash. Suratdagi personajlarning xatti-harakatlarini baholay olish xislatlarini tarkib toptirish. Surat mazmuni asosida xulosa chiqarishga o'rgatish.

Bolalar lug'atlarini o'rtoklik, do'stlik, ko'maqlashish, ahillik, mehribonlik, g'amho'rlik kabi so'zlar bilan faollashtirish.

Ijtimoiy- missiy rivojlanish

Tengdoshlari bilan do'st-inoq, mehribon bo'lish, muloqotga kirishish, hamkorlikka kirisha olish birgalikka o'ynashga intilishni tarbiyalash.

Kutilayotgan natijalar:

"Bo'lsang ahil bo'lmaysan baxil" maqolining mazmunini tushunadilar.

Do'stlar qanday bo'lishlari kerakligi haqida to'g'ri xulosaga keladilar.

Tengdoshlari bilan doimo mehr-oqibatli bo'lish, muloqotga kirishishga intiladilar.

Kerakli jihozlar: Maqol mazmuni asosida rangli surat.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi: bolalar, o'rtoqlik, do'stlik, mehribonlik deganda nimani tushunasiz?

(Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: To'g'ri, bolalar, guruhingizdagi bolalar bilan ahil bo'lib o'ynash, bir-biringizga o'zaro yordam berish, ko'maqlashish bu - o'rtoqlik, do'stlik, mehribonlik deyiladi. Bugun bolalar, do'stlik haqida maqol o'rganamiz. Eshiting!

"Bo'lsang ahil, bo'lmayсан baxil " Mazko'r maqolni mana bu surat orqali o'rganamiz. Suratga diqqat bilan qarang.

Bolalar qanday o'ynayaptilar?

(Tarbiyachi bolalarni surat mazmuni bo'yicha so'zlab berishga undaydi.)

- Qaysi bolalarning xatti-harakatlari sizga yoqmadi? Nima uchun?
- Ularni qanday atash mumkin?
- Ular to'g'ri ish qildilarmi?
- Do'stlar qanday bo'lishlari kerak?

(Bolalar javoblari).

Tarbiyachi: To'g'ri, bolalar, do'stlar bir-birlariga shirin muomalada, mehribon bo'ladilar. Bir-birlariga ko'maqlashadilar. Do'stlarni asrab-avaylash kerak. Do'stlar ahil, inoq bo'lgandagina ko'zlagan maqsadlariga erishadilar, biror ishni birdamlik bilan tugatadilar. Suratdagi bolalarga qarang, ular ahil bo'lib o'ynaganliklari tufayli o'zaro fikrlashib, o'ylashib, bo'zilgan mashinani to'zatdilar. Qizg'anchilik qilgan o'rtoqlarini shirin muomala qilib, qizg'anchilik yo'lidan qaytarib, haqiqiy do'stning ishini qildilar.

Bolalar, surat mazmunidan qanday xulosa qilamiz? Surat mazmuni maqolga mosmi? Yana qanday maqol ushbu suratga mos deb o'ylaysiz? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: Bolalar, haqiqiy insonlar bir-birlarini do'st va o'rtoq tutganlar, do'stlik va inoqlik insonlarning buyuk fazilati bo'lib, buni buyuk

bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Amir Temur, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniylar o'z asarlarida tarannum etganlar. Ularning o'z do'stlariga, shogirdlariga bo'lgan munosabatidan, ulug' fazilatlaridan o'rnak olish har birimizning burchimizdir. Xalqimizda "Do'stsiz kishi - qo'lsiz kishi" degan naql keng tarqalgan. Bu hikmatga amal qilgan har bir kishi doimo do'st orttirishga va unga sadoqatli bo'lishga harakat qiladi. Do'stlari va tengdoshlari bilan odob yuzasidan muomala qiladi

1-ilova

«Yaxshidan raxmat, yomondan la'nat» maqoli yuzasidan suhbat

Maqsad: Bolalarga yaxshilik eng yuksak fazilat ekanligi, yaxshilik insonlarning bir-biriga mehr ko'rsatishi, o'zaro yordam, g'amho'rliqi, shirin so'zda namoyon bo'lishi haqida tushuncha berish. Bolalarga odob- ahloqqa doyr pand-nasixatlardan namuna keltirib, ularni insonlarga yaxshilik qilishga undash, yaxshilik doim rahmat keltirishini hayotiy misollar bilan tushuntirish. Maqol mazmunini rasmlar orqali izohlash. Bolalarda suratdagi personajlarning xatti-harakatlarini baholay olish, surat mazmuni asosida xulosa chiqarish xislatlarini tarkib toptirishda davom etish. Bolalarda sof insoniy fazilat - yaxshilik haqida tasavvur hosil qilish va shunday xislatni shakllantirish.

Bolalar lug'atlarini odob, yaxshilik, mehr ko'rsatish, mehribonlik ko'maqlashish, kabi so'zlar bilan faollashtirish.

Ijtimoiy-xissiy rivojlanish.

Hayvonlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, ularga mehr shafqat ko'rsatish lozimligini tushuntirish.

Kutilayotgan natijalar:

"Yaxshidan raxmat, yomondan la'nat" maqolining mazmunini tushunadilar.

Odobli bolalar qanday yaxshi ishlarni odat qilishlari kerakligi haqida xulosaga keladilar.

Kerakli jihozlar: Maqol mazmuni asosida rangli surat.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi: Bolalar, bugun yaxshilik va u nimalarda ko'rinishi haqida suhbatlashib, "Yaxshidan rahmat, yomondan la'nat"

maqolini o'rganamiz. Aytingchi, odobli bolalar qanday yaxshi ishlarni odat qiladilar? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: To'g'ri, bolalar, odobli bolalar atrofdagi odamlarni, o'rtoqlarini hurmat qiladilar. Yaxshilik va yomonlikning farqini biladilar, qushlar va hayvonlarga g'amho'r bo'ladilar.

(Bolalar javoblari)

Bolalar, mana bu suratga qarang.

Bolalar kuchukchani qanday ahvolda ko'rib qoldilar?

Kuchukcha nega ranjidi?

Bolalar kuchukchaga qanday yordam berdilar?

Bolalarning yomon ishlari qanday oqibatga olib kelishi mumkin deb o'ylaysiz?

Tarbiyachi: Bolalar, ota-bobolarimiz o'z turmushlarida doimo yaxshi niyat bilan, kishilarga yaxshilik qilish maqsadida yashaganlar. Qadimgi "Avesto" kitobida odob-ahloqqa doyr pand-nasihatlarining birida shunday yozilgan: "Kimki itni ursa hayoti qiyinchilida o'tadi. Agar it och bo'lsa, uni ovqatlantirish kerak. Itni urgan, haqorat qilgan kishilar abadiy baxtsizlikka duchor bo'ladi. Itlar eng sadoqatli qo'riqchilardir"

Demaq, jonivorlarni parvarish qilish, och qoldirmaslik, zulm qilmaslik, ularni asrash, avaylash, mehribonlik ko'rsatish har bir insonning burchidir. Suratdagi bolalarning xatti-harakatlariga qarang, bolalarning kuchukchaga qilgan yaxshiliklari kuchukchaga quvonch bag'ishladi. Kuchukcha bolalarning qilgan yaxshiliklarini hech qachon unutmaydi. Ularga sadoqat bilan xizmat qiladi. Bilingki, doimo yaxshilikka yaxshilik qaytadi. Qarang, yaxshilik qanday yaxshi!

Bolalar, surat mazmunidan qanday xulosa qilamiz? Surat mazmuni maqolga mosmi? Yana qanday maqol ushbu suratga mos deb o'ylaysiz?

- Siz hayotingizda qanday yaxshi ishlarni qilgansiz?

(Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: Bolalar, keyingi suxbatimizda ota-bobolarimiz: Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Boburlar o'zlarining yaxshi nomlari bilan butun jahonga

dong taratganliklari haqida soʻzlab beraman. Shunda siz yaxshilik hamisha odamlarga yaxshilik qilish, ularning ogʻirini yengil qilish, el-yurt farovonligi uchun ishlash demakligini tushunib olasiz.

Tarbiyachi suhbatni A.Avloniyning "Yaxshilik yerda qolmas" masalini oʻqib berish bilan tugatishi mumkin.

3-ilova

Yaxshilik yerda qolmas

Bir ari suv ustida uchib borar edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari hoʻl boʻlib, ucharga kuchi yetmadi. Buni kabutar koʻrib, ariga rahmi keldi, darhol bir choʻpni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu choʻpni kema qilib, suv balosidan qutuldi.

Oradan koʻp oʻtmadi. Bir bola tuzoq qoʻyib, kabutarni tutmoqchi boʻldi. Ari buni koʻrgan zamon kelib, bolaning qulogʻini chaqdi. Bola ogʻriq alamidan tuzoqni tashlab, qulogʻini ushladi. Kabutar vaqtni gʻanimat bilib uchib ketib, tutqunlikdan qutuldi.

4-ilova

“Ajoyib haltacha” didaktik oʻyini

Dasturning mazmuni. Bolalarga tanish boʻlgan mevalarning nomi, shakli toʻgʻrisidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash haqida mevalarning rangi bilan tanishtirish.

Kerakli materiallar. Xar hil mevalar solingan (Toʻrttadan koʻp emas) chiroyli haltacha.

Oʻyinning borishi. Tarbiyachi bolalarni bitta bittadan stol oldiga chaqiradi. Chaqirilgan bola xaltachadan bironta mevani oladi va uning nomini, shaklini, rangini aytadi. Huddi shu oʻyinni bahorgi, yozgi meva va sabzavotlar bilan ham oʻtkazish mumkin. Bolalarning sabzavot va mevalar toʻgʻrisidagi tasavvur va tushunchalarini aniqlash hamda mustahkamlash uchun “Buni tatib koʻr” didaktik oʻyinini ham oʻtkazish mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarni hayvonat olami bilan tanishtirish, ularga nisbatan mehribonlik shavqat uygʻotish, shu orqali ularning oʻsib, ulgʻayishi uchun

qo'ldan kelgan mehnati bilan qatnashish hohishini tarbiyalash uchun mashg'ulotlar, maqsadli sayrlar hamda didaktik o'yinlar o'tkazish mumkin.

5-ilova

“Bu qanday hayvon” didaktik o'yini

Dasturning mazmuni. Uy hayvonlarini tovushiga qarab tanishga o'rgatish.

Kerakli materiallar. Uy hayvonlari tasvirlangan rasmlar.

O'yinning borishi. Tarbiyachi bolalarga tanish bo'lgan uy hayvonlari tasvirlangan (mushuk, kuchuk, echki, qo'y, tovuq, ot, sigir) rasmlarini tarqatib chiqadi. Shundan keyin, u bironta hayvonning ovozigga taqlid qilib ovoz chiqaradi, bolalar o'sha rasmni ko'rsatadi.

O'yinning ikkinchi variantida tarbiyachi qaysi rasmni ko'rsatsa, bolalar o'sha hayvonning nomini aytadilar va tovushuga taqlid qiladilar.

6-ilova

“Bu qachon bo'ladi” didaktik o'yini

Dasturning mazmuni. Yil fasllarining o'ziga xos belgilari to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlash.

Kerakli materiallar. Qog'ozdan qirqilgan dumaloq shakl to'rtga bo'linadi, har bir qismida yilning bitta fasli aks ettirilgan bo'ladi.

O'yinning borishi. Chaqirilgan bola tarbiyachining iltimosiga ko'ra rasmga qarab faslning tartibini, o'ziga hos xususiyatlarini so'zlab beradi. Shu tariqa o'yin to'rtta fasl asosida davom ettiriladi.

7-ilova

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun so'rovnoma

1. “Tevarak-atrof kuzatish” tushunchasi Siz uchun qanday ma'noni anglatadi?

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi sayrlar, ekskursiyalar va ular bo'yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish shartlari to'g'risida yetarli ma'lumotga egamisiz?

3. Tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, mazmuni to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarni qanday manbalar orqali o'zlashtirasiz?

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tevarak-atrof kuzatishni tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirishga e'tibor qaratasizmi?

6. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy va amaliy bilimlaringizni yetarli deb baholay olasizmi?

7. Maktabgacha katta yodagi bolalarni tevarak-atrof kuzatishga o'rgatishga oid nazariy va amaliy bilimlaringizning mavjud darajasidan qoniqmasligingizning sababi nimada?

8-ilova

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun

so'rovnoma

1. Bolalarga siz kapalakka aylanib qoldingiz. O'zingizni hislaringizni tasvirlab bering. (empatiya metodi)
2. Tabiatda mavjud bo'lmagan hayratlanarli (kulguli) hasharot rasmini chizing: unda turli hasharotlarning organlari aks etsin (Dalillar metodi).
3. Qanday o'ylaysiz, barcha hasharotlar yo'q bo'lib ketsa nima sodir bo'ladi? (Tashhislash metodi)
4. Akulalarning harakatlariga reklama o'ylab toping. (ko'rgazmali-kuzatish metodi).
5. Tasavvur qiling siz qurbaqasiz. O'zingizni quruqlikda va suvda qanday his qilasiz?
6. Qayer sizga ko'proq yoqadi? Nima uchun? (Empatiya - tasavvur metodi)